нагрузку в сети и выработку солнечных электростанций. Результаты моделирования показали, что предложенный метод позволяет значительно снизить несимметрию напряжения, особенно в периоды высокой солнечной активности. Оптимизация частоты переключений достигается за счёт разработка алгоритмов для определения оптимальной частоты переключений фаз. Комбинация с другими методами: использование совместно с методами регулирования реактивной мощности для улучшения качества электроэнергии в ночное время. Учет динамики нагрузки осуществляется при разработке алгоритмов, учитывающих динамические изменения нагрузки в сети.

### ЛИТЕРАТУРА

1. Babu, PR., Shenoy, R., Ramya, N., Soujanya, A., Shetty, S. (2014). Implementation of ACO technique for load balancing through reconfiguration in electrical distribution system. Annu. Int. Conf. Emerg. Res. Areas Magn. Mach. Drives. IEEE, 1–5.
2. Аллаев, К., Мирзабаев, А. Шаисматов, С., Холиддинов, И., Холиддинова, М., Махмудов, Т., Мусинова, Г. (2019). Обеспечение качества электрической энергии. Фан ва технология.
3. Tolabi, HB., Ali MH., Shahrin, Bin Md Ayob., Rizwan, M. (2014). Novel hybrid fuzzy-Bees algorithm for optimal feede multi-objective reconfiguration by considering multipledistributed generation. Energy, 7–15.
4. Ji, H., Wang, C., Li, P., Zhao, J., Song, G., Ding, F., (2017). An enhanced SOCP-based method for feeder load balancing using the multi-terminal soft open point in active distribution networks. Appl Energy; 208, 86–95.
5. Santos, SF., Fitiwi, DZ., Cruz, MRM., Cabrita, CMP., Catalão, JPS. (2017). Impacts of optimal energy storage deployment and network reconfiguration on renewable integration level in distribution systems. Appl Energy; 185, 44–55.
6. Jinxiang, Zhu., Mo-Yuen, Chow., Fan, Zhang. Phase balancing using mixed-integer programming [distribution feeders] (1998). IEEE Trans Power Syst; 13:14. 87–92.
7. Chitra, R., Neelaveni, R. (2011). A realistic approach for reduction of energy losses in low voltage distribution network. Int J Electr Power Energy Syst; 33, 77–84.
8. Wen, H., Cheng, D., Teng, Z., Guo, S., Li, F. (2014). Approximate Algorithm for Fast Calculating Voltage Unbalance Factor of Three-Phase Power System. IEEE Trans Ind Informatics; 10, 799–805.
9. Холиддинов, И., Холиддинова, М., Шаисматов, С. (2020). Алгоритм

определения уровня несинусоидальности напряжения, создаваемая электроустановками. Научно-технический журнал ФерПИ, спецвыпуск №1. стр, 41-46

10. Холиддинов, И. (2022) Устройство для регистрации дополнительных потерь электроэнергии при несимметрии нагрузок в низковольтных электрических сетях. "Инновационные технологии, - Международная научно-техническая конференция на тему "Проблемы и решения охраны труда в IT-технологиях и производстве" Андижанский машиностроительный институт. 143-150.
11. Холиддинова, М., Бегматова, М. (2021). Интеллектуальные электрические сети - эффективное решение актуальных проблем бесперебойности системы электроснабжения. Республиканская научно-техническая конференция "Эффективные решения актуальных проблем бесперебойности системы электроснабжения в электроэнергетике", 34-37.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14564099>

**БОЛАЛАРДА МЕЗИАЛ ТИШЛОВНИНГ ЭТИОЛОГИЯСИ,  
ПАТОГЕНЕЗИ, ДАВОЛАШ УСУЛЛАРИ (АДАБИЁТЛАР ШАРҲИ)**

**Олимов Сиддиқ Шарифович**

Бухоро давлат тиббиёт институти “Ортопедик стоматология ва ортодонтия”  
кафедраси мудир, профессор, DSc.

**Сафарова Мавлуда Жамоловна**

Бухоро давлат тиббиёт институти “Ортопедик стоматология ва ортодонтия”  
кафедраси таянч докторанти.

*Аннотация:* Тиш-жағ аномалиялари, жумладан тишлов патологиялари мавжуд бўлган беморларни таххислаш, даъволаш ва бундай патологияларни олдини олишда комплекс ёндашув замонавий ортодонтиянинг муаммоларидан бири ҳисобланади. Йиллар давомида стоматологик кўрик беморларда оғриқ, ҳаяжон ва ҳавотир билан ассоциациялашган. Ушбу мақолада стоматология амалиётида беморлар, жумладан болаларда учрайдиган мезиал тишловнинг этиологияси, патогенези ҳамда даъволаш усуллари ҳақида адабиётлар шарҳи келтирилади.

*Калит сўзлар:* мезиал тишлов, тиш-жағ системаси, тишлов аномалиялари, этиология, патогенез.

*Аннотация:* Комплексный медико-психологический подход к диагностике, лечению и профилактике пациентов с зубочелюстной патологией, включая патологии прикуса, является одной из проблем современной ортодонтии. На протяжении многих лет стоматологический осмотр ассоциировался у пациентов с болью, нервным возбуждением и депрессии. В этой статье представлен обзор литературы об этиологии, патогенезе и методах лечения мезиального прикуса, встречающихся у пациентов в стоматологической практике, в том числе у детей.

*Ключевые слова:* мезиальный прикус, зубочелюстная система, аномалии прикуса, этиология, патогенез.



**Abstract:** *A comprehensive medical and psychological approach to the diagnosis, treatment and prevention of patients with dental pathology, including malocclusion, is one of the problems of modern orthodontics. For many years, dental checkups have been associated with pain, nervous excitement, and depression in patients. This article provides a review of the literature on the etiology, pathogenesis, and treatment of mesial occlusion found in patients in dental practice, including children.*

**Key words:** *mesial bite, tooth-jaw system, bite anomalies, etiology, pathogenesis.*

**Долзарблиги:** Юз-жағ системаси аномалиялари ушбу система касалликлари орасида аҳоли орасида тарқалиши бўйича биринчи ўринлардан бирини эгаллайди. Жумладан Россия аҳолиси орасида 95,2 фоиз аҳолиси орасида, дунё аҳолисининг 78-92% аҳолисидан тарқалган. Манбаларда келтирилган маълумотларга биноан, функционал ва морфологик аномалиялар эрта алмашинув тишловли болаларнинг 75 фоизда топилган бўлиб, бу шу ёшдаги болалар орасида кариес ва бошқа юз-жағ соҳаси касалликларининг тарқалишидан ҳам кўпроқ ҳисобланади[2,7,11]. Т. Ф. Виноградова ва бошқ. муаллифларнинг келтирилган статистик маълумотларига кўра (1987), 3 ёшли болаларда 48%ида юз-жағ тизимининг шаклланган аномалиялари аниқланган. Грекова (1970), мактаб ёшидаги болаларда ушбу аномалияларнинг частотаси жинсидан қатъи назар, 25% ни ташкил қилади деб таъкидлаб ўтади. Бир қатор муаллифларнинг фикрига кўра, бу кўрсаткич ҳаётнинг ҳар йили ошиб бормоқда. Тиш-жағ системаси аномалиялари частотасининг ошиши, айниқса, тишларнинг яъни доимий ва сут тишларнинг алмашинуви бошланиши билан сезилади. Тиш аномалияларининг юқори тарқалиши тиббий-психологик ёрдам ва моддий харажатларнинг катта миқдорини ҳисобга олган ҳолда, ушбу патологияни ортодонтиянинг ижтимоий аҳамиятга эга муаммога айлантиради[3,10,11,12].

Тиш-жағ аномалиялари орасида болаларда мезиал тишлов тарқалиши бўйича барча аномалияларнинг 10 фоизидан 17 фоизини ташкил этиб, бундай тарқалиш кўрсаткичи ушбу тишлов патологиясини эрта ташхисланишда муаммолар мавжудлиги, бирламчи ёрдам кўрсатиш звеносининг сустлиги, бемор яъни бола катталашгани сари патологиянинг чуқурлашиб, оғирлашиб бориши билан боғлиқ[3,5,9]. Жумладан, ёш катталашгани сари мезиал тишловли беморладаги эстетик, морфологи ва функционал ўзгаришлар ушбу беморларнинг умумий тиббий-психологик ҳолатининг ёмонлашувига олиб келишини инобатга олиш зарур.

Тиш-жағ аномалияларида функционал, морфологик ва эстетик бузилишларнинг вужудга келиш сабаблари, ҳамда ривожланиш механизмларини

аниқлаш болаларда турли ёш даврларида профилактика ва терапевтик, ортодонтик ва жарроҳлик тадбирларни индивидуаллаштиришга ва уларни бартараф этишнинг комплекс усуллари қўллашга имкон беради. Қуйида ушбу касалликларнинг этиологик сабаблари тўғрисида сўз юритилади: Этиологик сабаблар асосан икки катта гуруҳга бўлиб ўрганилади: эндоген ("баъзида ички омиллар") ва экзоген ("ташқи омиллар")га бўлинади. Биринчисидан генетик сабаблар ҳисобга олинади, улар барча тиш аномалияларининг 25 фоизини ташкил этади, шунингдек эндокрин сабаблар ҳам шу гуруҳ этиологик омилларга мансубдир. Ушбу этиологик омилларнинг таъсир этиш давомийлигига кўра, эндоген этиологик сабаблардан ўз навбатида пренатал (она ҳомиладорлик даврида яъни бола туғилишидан таъсир этувчи), natal (бола туғилиш пайтида) ва постнатал (туғилгандан кейин, яъни ҳаёт давомида таъсир қилувчи омиллар) бўлиши мумкин. Кейингиси эса умумий ва маҳаллий сабаблар мавжуд[7,8,11,12].

Шундай қилиб, Тиш-жағ сиситемаси аномалияларининг келтириб чиқарувчи сабаблари шартли равишда 2 гуруҳга бўлинади: бу эндоген факторлар:

- а) эмбрионга ва ҳомила ривожланишининг турли босқичларида уларга таъсир этувчи салбий кимёвий ва физик таъсирлар;б) генетик омиллар; в) эндокрин касалликлари. Шунингдек, экзоген факторлар: умумий ва маҳаллий омилни ўз ичига олади. Тиш қаторларининг мезиал тишлови ҳам жағ суяклари ривожланишининг бузулиши, ҳам тиш-альвеоляр ёй ривожланишининг бузулиши натижасида келиб чиқиши мумкин(Персин Л.С., 2016). Туғма сабаблар сифатида Ҳомиладор она томонидан турли яллиғланиш касалликларни даволаш мақсадида дори-дармонларни қабул қилиш, айниқса ҳомиладорлик даврида 1,5 ойдан 2,5 ойгача(биринчи триместрда), эмбрион ривожланишининг туғма бузилишларига, хусусан, лабнинг, алвеоляр ўсиқнинг, қаттиқ ва юмшоқ танглай туғма кемтикларининг вужудга келишига олиб келиши мумкин. Шунингдек, алоҳида кемтиклар бўлиши мумкин, камдан-кам ҳолларда юзнинг қийшиқ ёки ўрта чизиғи кемтиги ҳам шаклланиши мумкин[4,5,9].

Ҳомиладор аёлнинг турли яллиғланиш касалликлари (сурункали, юқумли, эндокрин ва бошқалар) билан касалланиши, тана ҳароратининг кўтарилиши ёки нотўғри овқатлар ва витаминларнинг истеъмол қилиниши эмбрион ва ҳомиланинг ривожланишига салбий таъсир қилади ва турли тишлов патолгияларига олиб келади. Бўлажак ота-оналарнинг ноқулай муҳитда қолиши

(радиациянинг кўпайиши, ҳаво ва сувнинг кимёвий ва бактериологик элементлар билан тўйинганлиги ва бошқалар.) юз-жағ аномалияларининг пайдо бўлиши ва ривожланишининг сабабларидан бири бўлиши мумкин. Ҳомиладорлик пайтида аёл томонидан қоринни сиқиб чиқарадиган кийимлардан фойдаланиши, қорин бўшлиғининг шикастланиши (зарба бериш каби травмалар), руҳий жароҳатлар ҳомиланинг анормал ривожланишига ва тиш аномалияларига олиб келиши мумкин, атроф-муҳитнинг юқори ва паст ҳароратига таъсир қилиш ҳам ноқулай зарарловчи таъсирга эга[10,11].

Ҳомиладорлик токсикоз, юрак-қон томир тизими касалликлари ва экстрагенитал патологиянинг бошқа турлари бўлган оналарда болалар муддатидан олдин ёки тўлиқ муддатда туғилиши мумкин, аммо етук эмас. Эрта туғилган чақалоқларда кўпинча ривожланиш кечикиши ва мушак-скелет тизимининг патологик бузилишлари кузатилади. Бу болаларда тиш-жағ системаси аномалиялари 40% да, жисмонан кучли болаларда еса 15% да кузатилади. Улар тиш ёйининг торайиши, сут тишлари эмалининг гипоплазияси билан ажралиб туради (Н. А. Белова, 1980, Т. Д. Кудрявцева, 1988). Заифлашган болалар жисмоний фаолликнинг пасайиши, суст рефлекслар, хусусан, сўриш рефлексининг сустлиги билан ажралиб туради, бу кўпинча сунъий озиклантиришга ўтишга олиб келади. Натижада пастки жағнинг антеропостериор йўналишда ўсиши етарли бўлмайди ва турли тишлов касалликлари сабаб бўлади(Мягкова Н.В., дисс-я, Екатеринбург, 2017). Юкоридаги келтирилган омилларнинг барчаси мезиал тишлов келтириб чиқрувчи туғма омилларга мисол булади[1,6,7,10].

Шунингдек, ушбу тишлов патологияси келтириб чиқарувчи этиологик факторлар орасида генетик фактор ҳам муҳим аҳамиятга эга. Жумладан, Мягкова Н.В. ва Персин Л.С. каби олимларнинг фикрига кўра ирсий фактор мезиал прикусни келтириб чиқарувчи сабаблар орасида қарийб 25 % ни эгаллайди(Энгл бўйича III синф эса 84% ҳолатда ирсийланади). Чунки ирсий йўл билан жағ ўлчамлари(микро- ва макрогнатия) аномалиялари, ҳамда уларнинг калла суякларига нисбатан жойлашуви ҳам бўлажак ота-онадан фарзандга берилиши мумкин[7,11].

Эндокрин системаси касалликларида(анрогенитал синдромда) калла суяги суякларидан юз соҳасининг тоғай-суяк қисмининг ўсишининг кучайиши туфайли калла асоси ва пастки жағ ривожланиши бузулади ва жағларнинг диспропорцияси вужудга келади(мезиал тишловнинг гнатик шаклининг асосий этиологик сабаби)[10,11].

Кўпинча ортодонт-стоматолог юз-жағ системаси аномалиялари бўлган беморлар, тишлов патологияси мавжуд бўлган болалар учун қолип олувчи қошиғини танлашда қийинчиликларга дуч келади. Айниқса, мезиал окклюзиянинг гнатик турлари бўлган беморлар учун қолип қошиғини танлаш айниқса қийин. Ушба муаммони ечимини топиш учун Степанов томонидан индивидуал қошиқ таклиф этилган. Тишлов патологияларини эрта ёшда даволаш учун стоматологлар турли хил ускуналар ва даволаш усулларидан фойдаланадилар. Болалардаги мезиал тишловни тузатиш учун ортодонтик даволаш усулини бир турини танлашнинг асосий мезони сифатида беморнинг ёши ва клиник ҳолати ҳисобланади. Ортодонтик қурилмаларнинг кўп турлари мавжуд-улар дизайни, техник хусусиятлари, кийиш хусусиятлари ва, албатта, улардан фойдаланиш кўрсаткичлари билан фарқланади[7,10,11,12]. Хулоса ўрнида шуни такидлаш жоизки, тишлов патологиялари орасида мезиал тишлов беморлар орасида кенг тарқалганлигини инобатга олган ҳолда, ушбу тишлов патологиясини, этиологияси, патогенези ва даволаш усулини билиш ва амалиётга қўллаш ҳар бир шифокор учун долзарбдир.

#### **Фойданилган адабиётлар:**

1. Aliev N.H. Clinical and functional methods of assessment and diagnosis of the pathological condition of the temporomandibular joint // Тиббиётда янги кун – Бухоро, 1(33) 2021. Январь-Март. 375-380 бет.
2. Astanov, O. M., & Gafforov, S. A. (2021). Diagnosis and treatment of patients with maxillary-mandibular joint dysfunction without pathology of inflammatory-dystrophic origin. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 25(1), 5721-5737. Retrieved from [www.scopus.com](http://www.scopus.com)
3. Azimova Sh.Sh., Saidov A.A., Ibragimova F.I. Medical and Psychological Approach in the Early Diagnosis and Treatment of Cutaneous Bite in Children // *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*. – Volume 21, Issue 4, March, 2021. – P. 16137-16142. (Scopus)
4. Amrulloevich, G. S., & Hasanovich, A. N. (2020). Improvement of diagnostic methods and treatment of parafunction of chewable muscles in pain syndromes of a high-lower jaund joint. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(7 Special Issue), 2102-2110. doi:10.5373/JARDCS/V12SP7/20202329
5. Amrulloevich, G. S., Ahadovich, S. A., & Anatolyevna, B. E. (2020). Clinical characteristics of the dentition in young men, the role of metalloproteinases and connective tissue markers in the development of temporomandibular joint pathology

and their correction. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(7 Special Issue), 2111-2119. doi:10.5373/JARDCS/V12SP7/20202330

6. Durdiev Jonibek Ismatovich. Maktab yoshida bo'lgan yuqori nafas yo'llari surunkali kasalliklari mavjud bolalarda tish-jag' anomaliyalarini ortodontik davolash usullari. / Analytical Journal of Education and Development // Special issue | 2022 // ISSN: 2181-2624. // P 3107-311.

7. Durdiyev Jonibek Ismatovich. Og'iz bilan nafas oluvchi bolalarda yuqori jag'ni majburiy kengaytirish uchun olinmaydigan ortodontik apparatlardan foydalanish / SYNERGY: JOURNAL OF ESTHETICS AND GOVERNANCE Special Issue | 2022 ISSN: 2181-2616 // P 29-34.

8. Idiev, O.E., Teshayev, S.Z. (2022) The use of orthodontic appliances for the correction of myofunctional disorders in the prevention and treatment of dental disorders in children with cerebral palsy. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 13, DOI: 10.47750/pnr.2022.13.S08.337.

9. Ikromovna, I.F., Shomahmadovich, H.S. (2022) Method Of Studying The Relationship Of Dental Health And Quality Of Life Among Women Working In Chemical Industry Enterprises. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 13, DOI: 10.47750/pnr.2022.13.S09.595.

10. Gafforov S.A., Nurova S.N., Nurov N.B. Changes in the content of uneasurable amino acids in the blood of school-aged children with pulmonary anomalies.// SCIENCE AND WORLD, 65

11. Г.Б. Степанов, Л.Г. Ульянова //Повышение эффективности лечения пациентов с мезиальной окклюзией при помощи новой оттискной ложки. // Российский медико-биологический вестник имени академика И.П. Павлова, Т. 24, №4, 2016 г. DOI:10.23888/PAVLOVJ20164126-130

12. Постников М.А. //Оптимизация ортодонтического лечения детей с мезиальной окклюзией в период смены и после смены зубов// автореф. дис. д-ра мед. наук. Самара, 2016. 47 с.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14564101>

## FIZIKA FANINI REAL VA VIRTUAL NAMOYISH TAJRIBALAR ASOSIDA O'QITISH

**To'raxonov Fozil Bobonazarovich**  
DTPI dotsenti

**Omonqulova Umida Husanovna**  
DTPI o'qituvchisi  
[umidaomonqulova0505@gmail.com](mailto:umidaomonqulova0505@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Oliy ta'lim muassasalarida fizikadan real va virtual tajribalarini bajarishga kompleks yondashuvning uslubiy asoslari tavsiflangan. Fizika fanini o'qitishda yangi bo'lgan real va virtual namoyish tajribalarni qiyosiy analitik kuzatishlar usuli; real va virtual frontal tajribalarni kompleks amalga oshirish usuli; bir-birini to'ldiruvchi real va virtual tadqiqot usuli; real va virtual sharoitda bajariladigan laboratoriya usullari taklif etiladi.*

***Kalit so'zlar:** fizika, fizika o'qitish metodikasi, real laboratoriya, virtual laboratoriya, namoyish tajribalar, pedagogik dasuriy vositalar.*

## ОБУЧЕНИЕ ФИЗИКЕ НА ОСНОВЕ РЕАЛЬНОГО И ВИРТУАЛЬНОГО ОПЫТА

**Тураханов Фозил Бобоназарович**  
Доцент ДТПИ

**Омонкулова Умида Хусановна**  
Преподаватель ДТПИ  
[umidaomonqulova0505@gmail.com](mailto:umidaomonqulova0505@gmail.com)

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье описаны методологические основы комплексного подхода к проведению реальных и виртуальных физических экспериментов в высших учебных заведениях. Новый в преподавании физики метод сравнительного аналитического наблюдения за реальными и виртуальными демонстрационными экспериментами; метод комплексной реализации реального и виртуального фронтального опыта; взаимодополняющие реальные и виртуальные методы исследования; предложены лабораторные методы, выполненные в реальных и виртуальных условиях.*

***Ключевые слова:** физика, методика преподавания физики, реальная лаборатория, виртуальная лаборатория, демонстрационные эксперименты, педагогические программные средства.*

## TEACHING PHYSICS ON THE BASE OF REAL AND VIRTUAL EXPERIENCES

**Torakhanov Fozil Bobonazarovich**

Associate professor of DTPI

**Omonkulova Umida Husanovna**

is a teacher of DTPI

[umidaomonqulova0505@gmail.com](mailto:umidaomonqulova0505@gmail.com)

### ANNOTATION

*This article describes the methodological foundations of a comprehensive approach to conducting real and virtual physics experiments in higher education institutions. The method of comparative analytical observation of real and virtual demonstration experiments, which is new in the teaching of physics; method of complex implementation of real and virtual frontal experiences; complementary real and virtual research methods; laboratory methods performed in real and virtual conditions are offered.*

**Keywords:** *physics, physics teaching methodology, real laboratory, virtual laboratory, demonstration experiments, pedagogical software tools.*

### KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Fizikani o'qitishning yetakchi usuli bu – o'quv laboratoriyalardir. Hozirgi vaqtda real laboratoriyaning roli va ahamiyati pasayib, o'quv jarayonida virtual laboratoriyalari tobora ortib boshladi. Real o'quv laboratoriyalarni virtual analoglar bilan almashtirish har doim ham uslubiy jihatdan oqlanavermaydi. Chunki ushbu turdagi o'quv laboratoriyalarining har biri o'ziga xos psixologik, pedagogik va uslubiy imkoniyatlarga ega [1, 2].

Real va virtual laboratoriyalarning psixologik, pedagogik va uslubiy imkoniyatlari va cheklovlarini tizimli tahlil qilish asosida o'tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagilarni aniqlashga imkon berdi:

1) real va virtual laboratoriyalar ma'lum psixologik, pedagogik va uslubiy imkoniyatlarga egaligi sababli ham ular eng samarali bo'lgan qo'llash sohalariga ega hisoblanadi.

2) real va virtual laboratoriyalarning o'ziga hos imkoniyatlari hamda cheklovlari mavjud.

3) real va virtual laboratoriyalar bir-biri bilan yaxshi mos keladi, bir-birini rivojlantiradi va to'ldirib turadi. Chunki ularning har biri faqat ma'lum o'quv vaziyatlarida, ma'lum didaktik muammolarni hal qilishda nisbiy afzalliklarga ega. Shunday qilib, fizika o'qitish jarayonini takomillashtirish vazifalari ularning uslubiy

va psixologik-pedagogik imkoniyatlarini birlashtirish asosida real va virtual laboratoriyalardan har tomonlama foydalanish orqali amalga oshirilishi mumkin [3].

Real va virtual laboratoriyalarni amalga oshirishga integratsiyalashgan yondashuv orqali qaraganimizda ushbu turdagi laboratoriyalar bir-birini to'ldiradi va ularning talabalar faoliyatidagi o'zaro ta'siri mustaqil bilimlarni tashkil etishda yangi hamda integrativ imkoniyatlarning paydo bo'lishiga olib keladi [4].

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS)**

Real va virtual laboratoriyalarni bajarishga kompleks yondashuv asosida fizikani o'qitishning quyidagi usullarini amalga oshirish mumkin: real va virtual namoyish tajribalarni qiyosiy-analitik kuzatish usuli; real va virtual frontal tajribalarni kompleks amalga oshirish usuli; bir-birini to'ldiruvchi real va virtual tadqiqot usuli; real va virtual sharoitda bajariladigan laboratoriyalar usullaridir [3,4].

*Real va virtual namoyish tajribalarni qiyosiy analitik kuzatish usuli* - talabalarning real va virtual tajribalarni kuzatishlariga, so'ngra to'plangan aniq materiallarni tahlil qilish va umumlashtirishga asoslanadi. Real va virtual namoyish tajribalar o'rganilayotgan fizik hodisani boshlang'ich ma'lumotlarning keng doirasida, turli ko'rinishlarida, real va ideallashtirilgan bilish ob'ektlarida, bilish ob'ektining tashqi va ichki tomonlarida, real va ideallashtirilgan sharoitlarda fizik hodisalar o'rtasidagi funksional munosabatni ko'rsatish uchun amalga oshirilishi mumkin [5].

*Real va virtual frontal tajribalarni kompleks amalga oshirish usuli* - talabalar tomonidan fizik hodisalar, jarayonlar va qonuniyatlarni har tomonlama va ko'p o'lchovli o'rganishga qaratilgan real va virtual tajribalarni amalga oshirishni, so'ngra olingan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirishni o'z ichiga oladi. Fizik hodisalar haqidagi dastlabki ma'lumotlar va ularning turli ko'rinishlarida, real va ideallashtirilgan bilish ob'ektlarida, bilish ob'ektining tashqi va ichki tomonlarida, real va ideallashtirilgan sharoitlarda fizik hodisalar o'rtasidagi funksional bog'liqlikni keng ko'lamda o'rganish uchun real va virtual tajribalar o'tkazilishi mumkin [5].

*Bir-birini to'ldiruvchi real va virtual tadqiqot usuli* - talabalar tomonidan olingan natijalarni keyinchalik umumlashtirish bilan real va virtual laboratoriyalar asosida tadqiqot olib borishni o'z ichiga oladi. Tadqiqot davomida real va virtual laboratoriyalarning o'zaro bir-birini to'ldirishi talabalarga muammoli tajriba asosida muammoni shakllantirish va yuzaga kelgan qarama-qarshilikni bartaraf etish, ilgari surilgan farazlarning to'g'riligini tekshirish imkonini beradi. Fizik miqdorning turli parametrlarga bog'liqligini tekshirish hamda jismoniy qaramlikni eksperimental va nazariy darajada o'rganishni va boshlang'ich ma'lumotlarning keng doirasidagi fizik hodisalarning paydo bo'lish sharoitlarini o'rganishga yordam beradi [5].



*Real va virtual sharoitda olib boriladigan laboratoriyalar usuli* -talabalarning real asboblardan va jihozlardan foydalangan holda, shuningdek, kompyuter modellaridan foydalangan holda bir xil laboratoriya ishlarini bajarishlarini, so'ngra laboratoriyalarni bajarish usullarini tahlil qilishni va olingan natijalarni taqqoslashni o'z ichiga oladi [5].

### **NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)**

Real va virtual namoyish tajribalarning qiyosiy-analitik kuzatishlarini o'tkazish hamda real va virtual frontal tajribalarni kompleks amalga oshirish jarayonida talabalar:

- a) o'rganilayotgan fizik hodisani aniqlaydigan tashqi belgilarni mustaqil ravishda aniqlashlari mumkin. va boshqa hodisalardan farqlarini o'rganadilar;
- b) fizik hodisalarning yuzaga kelish shartlarini aniqlaydilar;
- c) fizik hodisalarning mohiyatini aniqlagan holda ularni tushunadilar;
- d) o'rganilayotgan hodisaning fizik modelini mustaqil ravishda kiritish va uni qo'llash chegaralarini aniqlaydilar;
- e) fizik miqdorlarning funksional bog'liqligini o'rnatish va fizik qonunlarni qo'llash chegaralarini shakllantirishni o'rganadilar.

### **MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)**

Namoyish tajribalarni tashkil etish o'qituvchi tomonidan ham, o'qituvchi hamda loabarant rahbarligida talabalar tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Real va virtual namoyish tajribalarni qiyosiy-analitik kuzatish usuli talabalarning yakka yoki juftlik ishlari shaklida amalga oshirilishi mumkin.

Laboratoriya ishlarini real va virtual sharoitlarda bajarish laboratoriya ishining mazmunini kengaytirish, real va ideallashtirilgan sharoitlarda fizik qonunlarning realligini tekshirish va uni shakllantirish va amalga oshirishning turli usullari yordamida o'quv laboratoriyalarni bajarish imkonini beradi. Real va virtual sharoitda olib boriladigan usul laboratoriya ishlarida talabalarning amaliy ko'nikmalarini kengaytirish imkonini beradi. Real va virtual sharoitda bajariladigan usulda laboratoriya ishlari talabalar tomonidan juft holda amalga oshirilishi mumkin.

Ta'riflangan o'qitish usullari doirasida talabalarni juft va guruhlariga bo'lish ularning qiziqishlari, qobiliyatlari va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi mumkin. Talabalar juft yoki guruhlariga birlashib, quyidagi hollardan birida harakat qilib, o'zlariga yuklangan o'quv va kognitiv vazifani bajarish usulini tanlaydilar:

- a) fizik asboblardan va asbob-uskunalaridan foydalangan holda tajribalar o'tkazuvchi fiziklar;

b) fizik hodisalar va jarayonlarni kompyuter vositalaridan foydalangan holda modellashtiruvchi nazariy bilimlarga ega bo'lgan yoki fizik ob'ektlarining tayyor modellari bo'yicha o'quv tajribalarini o'tkazuvchi fiziklar;

c) real sharoitlarda fizik asbob va asbob-uskunalar yordamida fizik tajriba o'tkazuvchi realistiklar yoki ideallashtirilgan sharoitlarni qayta ishlab chiqaruvchi kompyuter modelida fizik tajriba o'tkazuvchi idealistiklar [6].

### **XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)**


Real va virtual namoyish eksperimentlarni qiyosiy-analitik kuzatish usuli ko'rsatilayotgan fizik hodisa yoki jarayonning ravshanlik darajasini oshirish, o'quvchilarga o'rganilayotgan hodisa yoki jarayon haqida to'liqroq va aniqroq ma'lumot berishga yordam beradi. Shuningdek, tajriba davomida olingan natijalarni mustaqil tahlil qilish uchun sharoit yaratish uchun mo'ljallangan.

Real va virtual namoyish tajribalarni kompleks amalga oshirish usuli talabalarning frontal, juftlik yoki guruh ishi shaklida amalga oshirilishi mumkin. Bu usul talabalarga o'rganilayotgan hodisa yoki jarayon haqida to'liqroq va aniqroq ma'lumot olish imkonini beradi, shuningdek, tajribalar davomida olingan natijalarni mustaqil tahlil qilish uchun sharoit yaratadi.

Bir-birini to'ldiruvchi real va virtual tadqiqot ishlari metodi talabalarning frontal, juftlik va guruh ishlari shaklida amalga oshirilishi mumkin. Bu usul tadqiqot ko'lamini kengaytirish, shu orqali o'rganilayotgan fizik hodisa yoki jarayon haqida to'liqroq va aniqroq ma'lumot olishga mo'ljallangan.

Talabalar tomonidan bir-birini to'ldiruvchi real va virtual laboratoriyalar asosida olib borilgan tadqiqot natijalarini umumlashtirish quyidagi xulosalar chiqarish imkonini beradi: a) fizik hodisalarning mohiyati haqida; b) fizik miqdorlarning bog'liqliklari; v) fizik hodisaning yuzaga kelishining chegaraviy shartlari; d) fizik qonunlarni qo'llash chegaralari.

Real va virtual laboratoriyalar asosida bajarilgan laboratoriya ishlari natijalarini taqqoslash va tahlil qilish talabalarga: a) fizika fanidan olgan bilimlarini mustaqil ravishda chuqurlashtirish va batafsillashtirish; b) o'rganilayotgan fizikaviy nazariyalarning to'g'riligiga ishonch hosil qilish; c) o'lchov xatolarining batafsil tahlilini o'tkazish; d) fizik qonunlarni qo'llash chegaralarini o'rganish; e) fizik qonunlarning realligini tekshirish va fizik konstantalar qiymatlarini aniqlashning turli usullarini o'rganish imkoniyatini beradi [7].



### Real va virtual laboratoriyalar asosida fizik bilimlar tizimining elementlarini ko'p o'lchovli o'rganish.

O'qituvchiga fizika bo'yicha o'quv jarayonini real va virtual laboratoriyalarni kompleks amalga oshirish asosida tashkil etishda yordam berish uchun mo'ljallangan va umumiy xususiyatga ega bo'lgan uslubiy tavsiyalar quyidagi qoidalarni o'z ichiga oladi:

1. Real va virtual laboratoriyalar kombinatsiyasi o'quv materialining mazmuni, darsning maqsadi va vazifalari bilan belgilanishi kerak.
2. Real va virtual laboratoriyalarni tanlashda ularning didaktik imkoniyatlarini hisobga olish va darsning o'quv va kognitiv vazifalarini hal qilishda funktsiyalarini aniq belgilash kerak.
3. Dars tarkibiga o'quv qurollari majmuasi organik tarzda kiritilishi, real va virtual eksperiment esa o'zaro bog'langan va o'zaro bog'liq bo'lishi, ya'ni yagona tizimni ifodalashi kerak.

4. Real va virtual laboratoriyalar jismoniy bilimlar tizimining elementlarini har tomonlama va ko'p o'lchovli o'rganishga qaratilgan bo'lishi kerak (rasmga qarang).

5. Har bir tajriba turi fizika darsida talabalarning kognitiv mustaqilligini faollashtirishga, ularning faol aqliy faoliyatini ta'minlashga, o'quv materialini taqdim etish va o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam berishi, shuningdek, o'quv materialining maksimal darajada haqiqiyli va ishonchliligiga erishishga yordam berishi kerak.

6. O'quv vositalarining kombinatsiyasi behuda vaqtni, o'qituvchi va talabalarning kuchini kamaytirishga yordam berishi kerak [8].

Shunday qilib, real va virtual laboratoriyalarni bajarishga kompleks yondashuv fizika o'qituvchilariga talabalarning mustaqil bilim faoliyatini tashkil etishning yangi usullarini ochib beradi, kompyuter va fizikani o'qitishning an'anaviy usullarining optimal kombinatsiyasini ta'minlaydi. Ta'riflangan fizika o'qitish usullari yangi nazariy va eksperimental tadqiqotlar yo'nalishi bo'yicha o'zgartirishga oladi va fizikani o'qitishning barcha boshqa usullarini o'zgartira olmaydi. Ular talabalarning ta'lim faoliyatini tashkil etishning ham kamroq, ham faol usullari bilan mukammal tarzda birlashtirilishi kerak [9,10].

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Husanovna, U. O., & Yusupovna, C. G. (2024). UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA FIZIKANI O'QITISHDA EKSPERIMENTAL YONDASHUV. *Science and innovation*, 3(Special Issue 29), 322-326.

2. To'raxonov Fozil Bobonazarovich, Omonqulova Umida Husanovna (2024) fizikani namoyish tajribalar yordamida takomillashtirishning metodik asoslari. *Educational Research in Universal Sciences* ISSN: 2181-3515

3. U.H.Omonqulova, M.P.Xolmurodov, D.Hakimov Umumta'lim maktablarida fizika o'qitishda zamonaviy namoyish tajribalar asosida takomillashtirish. "Aniq va tabiiy fanlarning rivojlanish istiqbollari" Respublika ilmiy-amaliy anjumani 2024-yil 7-may. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11147306>

4. U.H.Omonqulova, G.Y.Choriyeva, B.R.Toshtemirov Umumta'lim maktablarida fizikadan namoyish tajribalarining o'quv mazmundorligini aniqlash va ularni joriy etish metodikasi. "Aniq va tabiiy fanlarning rivojlanish istiqbollari" Respublika ilmiy-amaliy anjumani 2024-yil 7-may. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11116057>

5. *Харазян О. Г.* Виртуальный физический эксперимент : сущность понятия // *Инновационные технологии обучения физико-математическим дисциплинам* :

материалы IV Международ. науч.-практ. интернет-конф., Мозырь, 27–30 марта 2012 г. / УО МГПУ им. И. П. Шамякина ; редкол. : В. В. Валетов (отв. ред.) [и др.]. Мозырь, 2012. С. 158–159.

6. A.A.Yo‘ldoshev, U.H.Omonqulova, J.V.Ochilov Fizikani o‘qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

7. Turakhonov F. (2021). Fizik jarayonlarni kompyuterda modellashtirishning metodikn asoslari / Pedagogik mahorat ilmiy-nazariy va metodik jurnal. – Buxoro. 6-son. –B. 105-109.

8. Kurbanov M. Turakhonov F. (2021). Analysis of software with the opportunity to model physical processes in specialized schools / American journal of social and humanitarian research. AJSR, ISSN: 2690-9626. Vol.2, No.10. Pp. 313-321.

9. Kurbanov M. (2008). Fizikadan namoyish eksperimentlarining uslubiy funktsiyalarini kengaytirishning nazariy asoslari. Monografiya. Fan.

10. Kurbanov M. Turakhonov F. (2023). Fizika o‘qitishda zamonaviy namoyish tajribalarga qo‘yilgan talablar. Educational Research in Universal Sciences ISSN: 2181-3515

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14564109>

## PYEZOELEKTRIK DATCHIKLARINING ASOSIY PARAMETRLARINI ANIQLASH

**Sarvar Jovliyev Mustafo o'g'li**

QarMII "Metrologiya va materialshunoslik muhandisligi" kafedrası o'qituvchisi  
e-mail: [jovliyev19sarvar96@gmail.com](mailto:jovliyev19sarvar96@gmail.com)

***Annotatsiya:** Bilimlarni o'zlashtirish muammosi kasbiy ta'lim o'qituvchilarini azaldan bezovta qilib kelgan. Hayotda insonning deyarli har qanday harakati, nafaqat o'rganish, balki ma'lum bir bilimlarni, u yoki bu ma'lumotlarni o'zlashtirish va qayta ishlash zarurati bilan bog'liq. O'rganishni o'rgatish, ya'ni ma'lumotni assimilyatsiya qilish va to'g'ri ishlashga o'rgatish - bu o'quv faoliyatiga asoslangan yondashuvning asosiy tezisi. Ushbu maqolada pyezoelektrik datchik parametrlarini hisoblashni, o'lchash natijalarini matematik tahlil etish uslubiyotini, pyezoelektrik datchik kirish kattaligi kuch, chiqish kattaligi tok miqdori bo'lgan generator tipidagi datchiklar haqida ma'lumot topish o'rganilgan.*

***Kalit so'zlar:** Pyezoelektrik datchik, parametr, kirish kattaligi, chiqish kattaligi, generator, pyezoeffekt hodisasiga, elektr zaryad, kvars, turmalin, segnet tuzi, bariy titanat, membrana.*

## ОПРЕДЕЛЕНИЕ ОСНОВНЫХ ПАРАМЕТРОВ ПЬЕЗОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ ДАТЧИКОВ

**Сарвар Жовлиев Мустафо ўғли**

Преподаватель кафедры «Метрология и материаловедение инженерия» КИЭИ  
e-mail: [jovliyev19sarvar96@gmail.com](mailto:jovliyev19sarvar96@gmail.com)

***Аннотация:** Проблема усвоения знаний давно беспокоит преподавателей профессионального образования. В жизни почти каждое действие человека связано не только с обучением, но и с необходимостью усваивать и обрабатывать определённые знания и информацию. Учить учиться, то есть учить усваивать информацию и правильно её использовать, - это основной тезис подхода, основанного на учебной деятельности. В данной статье рассматриваются методы расчета параметров пьезоэлектрических датчиков,*

методики математического анализа результатов измерений, а также информация о датчиках генераторного типа, у которых входной величиной является сила, а выходной величиной является ток.

**Ключевые слова:** Пьезоэлектрический датчик, параметр, входная величина, выходная величина, генератор, пьезоэффект, электрический заряд, кварц, турмалин, сегнетова соль, титанат бария, мембрана.

## DETERMINATION OF THE MAIN PARAMETERS OF PIEZOELECTRIC SENSORS

**Sarvar Jovliev Mustafo ugli**

Lecturer at the Department of "Metrology and materials engineering" at QEEl


e-mail: [jovliyev19sarvar96@gmail.com](mailto:jovliyev19sarvar96@gmail.com)

**Annotation:** The problem of mastering knowledge has long troubled vocational education teachers. In life, almost every human action is related not only to learning but also to the necessity of assimilating and processing certain knowledge and information. Teaching how to learn, that is, teaching how to assimilate information and use it correctly, is the main thesis of the approach based on educational activities. This article discusses methods for calculating the parameters of piezoelectric sensors, methodologies for the mathematical analysis of measurement results, and information about generator-type sensors where the input quantity is force and the output quantity is current.

**Keywords:** Piezoelectric sensor, parameter, input quantity, output quantity, generator, piezoelectric effect, electric charge, quartz, tourmaline, Rochelle salt, barium titanate, membrane.

Pyzeoelektrik datchik kirish kattaligi kuch, chiqish kattaligi tok miqdori bo'lgan generator tipidagi datchiklarga kiradi. Pyzeoelektrik datchikning ishlash prinsipi pyzeoeffekt hodisasiga asoslangan, uning mohiyati shuki siqish va cho'zilish jarayonida ba'zi kristallarning qirralarida elektr zaryadlari hosil bo'ladi.

Pyzeoelektrik manometrlarning ishlash prinsipi ba'zi kristall moddalarning mexanik kuch ta'sirida elektr zaryad hosil qilish qobiliyatiga asoslangan. hodisa pyzeoeffekt deb



1 – rasm. Pyzeoelektrik manometer sxmasi

ataladi. Pezoeffekt kvars, turmalin, segnet tuzi, bariy titanat va boshqa moddalar kristallarida kuzatiladi. Bu turdagi asboblarda ko‘pincha kvars shlatiladi. Kvarsning pezoelektr effekti +500°S gacha bo‘lgan haroratga bog‘liq emas, lekin +570°S dan oshgan haroratda bu effekt nolga teng bo‘lib qoladi.

F kuch ta’sirida kristall plastinka yuzalarida paydo bo‘ladigan elektr zaryad ushbu tenglama bilan topiladi:

$$Q=K_p \cdot F \quad (1.1)$$

bu erda,  $K_p$ —pezoelektrik doimiy, Kl/N.  $K_p$  ning qiymati plastinaning o‘lchamiga bog‘liq emas va kristallning tabiati bilan belgilanadi. Kvars uchun

$$K_p=2,1 \cdot 10^{-12} \text{ Kl/n.}$$

1-rasmda pezoelektrik manometrning sxemasi ko‘rsatilgan.

O‘lchanayotgan bosimni 4 membrana kuchga aylantiradi, bu kuch esa diametri 5 mm va qalinligi 1 mm bo‘lgan kvars plastinalar 2 ning ustunlarini siqilishga majbur qiladi. Vujudga kelayotgan Q elektr zaryad 1 chiqishlar orqali katta kirish qarshiligiga ( $10^{13}$  Om) ega bo‘lgan elektron kuchaytirgich 5 ga uzatiladi.

Zaryadning qiymati o‘lchanayotgan R bosim bilan quyidagicha bog‘langan:

$$Q=K_p \cdot S \cdot P \quad (1.2)$$

bu erda, S — membrananing samarali yuzi.

Asbobning inersionalligini kamaytirish uchun kamera 3 ning hajmi minimallashtiriladi.

100 mPa ( $1000 \text{ kgk/sm}^2$ ) gacha bosimlarni o‘lchashga imkon beruvchi pezokvarsli manometrlar tez o‘zgaruvchi bosimlarni o‘lchashda keng qo‘llanadi. Pezoeffektning afzalligi uning inersionsizligidir. Bu asboblarda bosimlari tez o‘zgaradigan jarayonlarni (kavitatsiya, portlash) o‘rganishda juda qulay. Pezoelektr manometrlarning aniqlik sinfi 1,5; 2,0.

Quyidagi parametrlarini topamiz.

1). Zaryad miqdori

$$q=K_0 \cdot F_x \text{ (Kl/N)} \quad (1)$$

$K_0$  – pyezoelektrik doimiy;

$F_x$  – kuch.

2). Bitta plastina sig‘imi

$$C_0 = 0.89 \frac{\epsilon_r \cdot S_x}{d} = 0.89 \frac{\epsilon_r \cdot \pi \cdot D^2}{4 \cdot d} = 0.89 \frac{\epsilon_r \cdot \pi a b}{4 \cdot d} \text{ (pF)} \quad (2)$$

$C_0$  - bitta plastina sig‘imi ;

$\epsilon_r$ - dielektrik o‘tkazuvchanlik ;

D – plastina diametri;

a va b – plastina tomonlari(to‘g‘ri to‘rtburchak);



d – plastina qalinligi.

3) Qatlamlar orasidagi kuchlanish

$$U = \frac{10^{12} * n * q}{C_k + n * C_0} = \frac{q * 10^{12}}{C_k / n + C_0} \quad (V) \quad (3)$$

$C_k$  - o'lchanayotgan zanjir sig'imi

n – plastinalar soni;

4). Datchik sezgirligi

$$S_d = \frac{U}{F_x} \quad (V/N) \quad (4)$$

$S_d$  – datchik sezgirligi

**Masalani yechish:**

**Berilganlar:**

Material – kvars,  $\epsilon_r = 4.5 * 10^{-11}$ ,  $K_0 = 2.5 * 10^{-12}$  Kl/N; n=1; d=1mm=10<sup>-3</sup>m;

D=1sm=10<sup>-2</sup>m;

$F_x = 15$  N;  $C_k = 17$  pF.

**Yechish:**

1)  $q = K_0 * F_x = 2.5 * 10^{-12} * 15 = 37.5 * 10^{-12}$  (Kl)

2)  $C_0 = 0.89 \frac{4.5 * 10^{-11} * 3.14 * 10^{-4}}{4 * 10^3} = 3.1$  (pF)

3)  $U = \frac{37.5 * 10^{-12} * 10^{12}}{17/1 + 3.1} = 1.9$  (V)

4)  $S_d = \frac{1.9}{15} = 0.12$  (V/N).

## ADABIYOTLAR

1. O.N. Norboyev, S.M. Jovliyev. (2023). Donni maydalash texnologik jarayonini avtomatlashtirish tavsifi va tahlili // Innovations in Technology and Science Education, 2023/3/1, 2-7, 615-626
2. O.N. Norboyev, S.M. Jovliyev. (2023). Donni maydalash texnologik jarayonini avtomatlashtirish tavsifi va tahlili // Innovations in Technology and Science Education, 2023/3/1, 2-7, 615-626
3. Jovliyev, S. M. o'g'li. (2023). O'LCHASH O'ZGARTKICHLARI VA ULARNI ASBOBLARNING O'LCHASH CHEGARASI (DIAPAZONI)NI KENGAYTIRISHDA ISHLATILISHI // Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 695–700

4. O.N. Norboyev, S.M. Jovliyev. (2023). MATLAB DASTURINIG SIMULINK PAKITIDAN FOYDALANIB KONTUR TOKINI IMITATION MODELLASHTIRISH VA OPTIMALLASHTIRISH // Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 870-881
5. Jovliyev Sarvar Mustafo o'g'li. O'LCHASH NATIJALARINI QAYTA ISHLASH // Educational Research in Universal Sciences. November 2023, Volume 2, Issue 11, page 264-269
6. Jovliyev Sarvar Mustafo o'g'li. Turli tizimdagi o'lchash asboblarni tekshirish va xatoliklarini aniqlash // Educational Research in Universal Sciences. November 2023, Volume 2, Issue 11, page 283–290
7. Jovliyev Sarvar Mustafo o'g'li. (2022). MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISH VA TAXLIL QILISH STATISTIK USULLARINING YETTI INSTRUMENT USULLARI // EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(6), 41–45
8. Jovliyev Sarvar Mustafo o'g'li. (2022). TEXNIKA OLIY O'QUV YURTLARI TA'LIMIDA KEYS TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH // EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(5), 791–794
9. Zhovliev S.M. Specialty of technological processes and production automation – profession of the XXI century // ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. –2021, May. –T.2. №.05. –C. 15-19
10. Mallayev A.R., Sharipov G.Q., Sodikov A.R., Zhovliev S.M. Mathematical modeling of dynamics formation of hydrates at pipeline natural gas transport // International Journal For Innovative Engineering and Management Research. – 2021, April. –T.10. №.4. –C. 31-35
11. Raximov A.X., Jovliyev S.M. Xolbutayeva X.E. Radio monitoring and recognition of radio emissions radio electronic equipment // International Journal For Innovative Engineering and Management Research. –2021, April. – T.10. №.4. –C. 506-507

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14564115>

## KATALIZATOR ORTOBORAT KISLOTA ISHTIROKIDA OLINGAN DIMETILKARBAMID SINTEZI VA IQ SPEKTRI TAHLILI

**Jovliyev Sarvar Mustafo o'g'li**

Toshkent kimyo texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

e-mail: [jovliyev19sarvar96@gmail.com](mailto:jovliyev19sarvar96@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqot ishida mahalliy xomashyo hisoblangan karbamid, metanol hamda katalizator ortoborat kislota asosida kislorod va azot saqlagan dimetilkarbamid sintezi amalga oshirishda ortoborat kislota katalizator sifatida ishlatiladi. Bu kislota reaksiyani tezlashtirishda yordam beradi va dimetilkarbamidni yuqori samaradorlikda olish imkonini beradi hamda benzinni oktan sonini oshiruvchi organik qo'shimcha sifatida qo'llanilgan. Shuningdek, sintez qilingan moddaning tuzilishi, strukturaviy formulasi IQ, spektraskopiya analiz natijalariga asoslanib tahlil qilingan. Olingan moddani UIT-85 qurilmasida AI-80 benzinning oktan soniga ta'siri o'rganilganda 1,5 % qo'llanilganda 7,5 birlikka ko'tarilgani aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** Benzin, oktan soni, neft, mochivena, suv, etil spirt, tabiiy gaz, antidetonatsiya, aminlar, uglevodorodlar, dimetilkarbamid, metanol.

## SYNTHESIS AND IR SPECTRAL ANALYSIS OF DIMETHYLUREA OBTAINED IN THE PRESENCE OF ORTHOBORIC ACID CATALYST

**Jovliev Sarvar Mustafo o'g'li**

Independent researcher at the Tashkent Scientific Research Institute  
of Chemical Technology.

**Abstract:** In this study, dimethyl urea containing oxygen and nitrogen was synthesized using local raw materials such as urea, methanol and orthoboric acid catalyst. Orthoboric acid was used as a catalyst, accelerating the reaction and increasing the efficiency of obtaining dimethyl urea, which was used as an organic additive to increase the octane number of gasoline. The structure and composition of the synthesized compound were analyzed using IR spectroscopy. When studying the effect of the obtained compound on the octane number of AI-80 gasoline using the UIT-85 device, it was found that adding 1.5% dimethyl urea increases the octane number by 7.5 units.

**Key words:** Gasoline, octane number, oil, mercury, water, ethyl alcohol, natural gas, anti-knock, amines, hydrocarbons, dimethylurea, methanol.

## СИНТЕЗ И ИК-СПЕКТРАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ДИМЕТИЛМОЧЕВИНЫ, ПОЛУЧЕННОЙ В ПРИСУТСТВИИ КАТАЛИЗАТОРА ОРТОБОРНОЙ КИСЛОТЫ

**Жовлиев Сарвар Мустафо ўғли**

Независимый исследователь Ташкентского научно-исследовательского института химической технологии

***Аннотация:** В данном исследовании на основе местного сырья, такого как карбамид, метанол и катализатор орто-борная кислота, был осуществлён синтез диметилкарбамида, содержащего кислород и азот. Орто-борная кислота использовалась в качестве катализатора, способствуя ускорению реакции и повышению эффективности получения диметилкарбамида, который применялся в качестве органической добавки для повышения октанового числа бензина. Структура и строение синтезированного соединения были проанализированы с помощью ИК-спектроскопии. При исследовании влияния полученного соединения на октановое число бензина АИ-80 с помощью прибора УИТ-85 было установлено, что добавление 1,5 % диметилкарбамида увеличивает октановое число на 7,5 единицы.*

***Ключевые слова:** Бензин, октановое число, масло, ртуть, вода, этиловый спирт, природный газ, антидетонационное средство, амины, углеводороды, диметилкарбамат, метанол.*

### KIRISH

XXI asrga kelib avtomobilsozlik sanoatining o'sishi neft mahsulotlariga bo'lgan talabni sezilarli darajada ortirmoqda. Neft deganda – ko'mir, atom energetikasi, tabiiy gaz va boshqa qayta tiklanadigan energiya manbalaridan ustun bo'lgan dunyoda energiyaga bo'lgan talabni qondiruvchi eng katta energiya manbalaridan biri tushuniladi. Dunyo bo'yicha energiya iste'molining 80 % neft mahsulotlari hisobiga to'g'ri keladi.

Yoqilg'ilarni mahalliy xomashyolar va sanoat mahsulotlari asosida faol guruhlarni o'z ichiga olgan birikmalar bilan modifikatsiyalash, modifikatorlarni ishlab chiqarish va ularni yoqilg'ilarning sifatini oshirish uchun amaliyotda qo'llashning samarali texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda avtomobil sanoatining rivojlanishi natijasida turli avtomobillar ishlab chiqarilmoqda. 2020 yilda avtosanoat sohasidagi ishlab chiqaruvchi tashkilotlar tomonidan 33 mlrd so'mdan ortiqroq bo'lgan 280 080 dona yengil avtomobillar (21,7%), 642 dona avtobuslar (29,3%), 4 163 dona yuk mashinalari (30,1%), 673 dona traktorlar (6,5%), va 41 dona maxsus transport vositalari ishlab chiqarishga erishilganligi haqida ma'lumotlar berilgan.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Butun dunyoda sanoat miqyosida uch turdagi oktan sonini ko'paytiruvchi moddalar (qo'shimchalar va komponentlar) qo'llaniladi – metallarni o'z ichiga olgan antide-tonatsiya, kulsiz antide-tonatsiya va oksigenatlar (kislородli antide-tonatsiya) shular jumlasidan. [1]

Metallni o'z ichiga olgan qo'shimchalarni tadqiq qilish va sinovdan o'tkazish shuni ko'rsatadiki, detonatsiyaga qarshi eng yuqori qarshilikka qaramasdan, bu birikmalar jiddiy reaksiyon yoki ekologik kamchiliklarga ega. Bu shundan dalolat beradiki, tijorat mahsulotlarining iste'mol xususiyatlariga mas'ul bo'lgan yirik benzin ishlab chiqaruvchilar bu kabi moddalarni oktanni ko'paytiruvchi qo'shimchalar jumladan, oksigenatlar bilan aralashiriladigan moddalar deb hisoblamaslik kerak. [2].

Tarkibida azot bo'lgan organik birikmalar samarali yoqilg'i qo'shimchalari hisoblanadi. Qo'shimchalar sifatida aminokislotalar, amidlar va boshqalarni ishlatish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilgan. Hozirda azot tarkibli qo'shimchalardan aromatik aminlardan keng foydalaniladi.[3].

Monometilanilin asosidagi qo'shimchalar antide-tonatsiya samaradorligi bo'yicha metil-tret-butilefiri MTBEDan 10-15 barobar ustun sanaladi. Bundan tashqari, ushbu qo'shimchani joriy etish ko'plab neftni qayta ishlash zavodlarida tijorat benzinidagi asosiy yuqori oktanli komponent bo'lgan riformat ulushini kamaytirishga imkon beradi. Aromatik birikmalarining yuqori miqdori bilan riformatning kamayishi o'z navbatida benzinning ekologik xususiyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. [4].

Oksigenatlar benzin yoqilg'isi tarkibida 2% hajm miqdorida qo'shilganda kislород tomonidan qaralganda ular yoqilg'ining to'liq yonishiga hissa qo'shadi. Buning natijasida yonish mahsulotlarida uglerod oksidi miqdori 30% ga kamayadi. Tarkibida kislород bo'lgan birikmalar detonatsiyaga yuqori qarshilikka ega bo'lib, tijorat benzinidagi yuqori oktanli aromatik birikmalarini almashtirishi mumkin. Shuningdek, ajralib chiqadigan gazlardagi benzapren miqdorini hamda dvigateldagi uglerod hosil bo'lish intensivligini kamaytiradi.[5].

Tarkibida kislород bo'lgan hamda oktan sonini oshiruvchi qo'shimchalar ta'sir qilish mexanizmi yo'qligida kislород konsentratsiyasini oshirishdan iborat bo'lib bu o'z navbatida, havo-yoqilg'i aralashmasini yonish issiqligini pasaytiradi. Binobarin, peroksid radikallarining parchalanishi sekinlashadi, yonish kamerasidan issiqlikni tez chiqib ketishi holati kuzatiladi. Buning natijasida maksimal yonish harorati pasayadi. [6].

Dvigatel yoqilg'isi ishlab chiqarishda foydalaniladigan tarkibida kislород bo'lgan oksigenatlarni ikkita katta guruhga ajratish mumkin: spirtlar; dialkilefirlar.[7].

Ko'pchilik tadqiqotlarda turli xil kislородli qo'shimchalar spirtlar, efirlar va boshqalarni benzinda detonatsiyaga qarshi vosita sifatida ishlatiladi. Kislородda o'z

ichiga olgan qo‘shimchalarning boshqa toifadagi antidetonatsiya agentlariga nisbatan afzalligi mavjud.[ 8]

Metil-tret-butil efiri (MTBE) bilan raqobatlasha oladigan yoqilg‘i tarkibidagi oktan sonini oshiradigan tarkibida kislrod bo‘lgan oksigenat ya’ni, dizopropil (DIPE) efiri olish bo‘yicha yangi jarayon ishlab chiqildi. Buning uchun xomashyo sifatida propilen va suv olindi (firma UOP, “Oxurgo” jarayoni). Ma’lumot uchun: DIPE ning oktan soni MTBE dan past.


Dunyoda spirt saqlovchi yoqilg‘idan foydalanish bo‘yicha 20 yildan ko‘proq bo‘lgan tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, etanoldan nafaqat oktanni ko‘chaytiruvchi vosita sifatida balki, dvigatellarni sof spirt yoqilg‘isiga o‘tkazish mumkin. Etil pirti metil spirtiga qaraganda kamroq gigroskopikdir. Yonish issiqligi yuqori hamda bug‘lanish issiqligi past va juda kam zaharli. Shuningdek, etil spirti yaxshi tozalash vositasi hamdir. Yangi mashinalarda dvigatelni toza saqlaydi. Eski mashinalarda esa dvigatelning ifloslantiruvchi moddalar qoldiqlarini parchalaydi va tozalaydi. Ba’zida ajratilgan ifloslantiruvchi moddalar yoqilg‘i filtrida to‘planishi va filtrning almashtirish orqali olib tashlanadi. [9].


Yuqori portlash qarshiligiga ega (oktan soni RON 90-93) tovar yoqilg‘isining qimmatli tarkibiy qismidir. Biroq, katalitik kreking benzinining ulushi uning yuqori sezuvchanligi va oltingugurt va to‘yinmagan uglevodorodlarning yuqori miqdori bilan cheklangan. Bu barqarorlik va atrof-muhit ko‘rsatkichlarini pasaytiradi. [10].

**Tajribaviy qism:** Analitik tarozida karbamiddan 50g o‘lchab olinib, termometr bilan jihozlangan 3 og‘izli kolbaga solinib qizdirish pechi yordamida haroratni 150 °C gacha qizdirildi. Karbamid suyuq holatga o‘tgandan keyin metanoldan 10 ml shisha nay orqali jo‘natildi. Natijada karbamidning haroratni 120 °C ga tushdi. Karbamid haroratini 150 °C ga qayta qizdirildi. Bu jarayon 5 marta takrorlanib 50 ml metanol quyildi.

Bu aralashma 150°C da 5 soat qaynatildi, so‘ngra olingan aralashma 60°C da quritish pechida 4 soat davomida yaxshilab quritildi va olingan oq rangli kristal holdagi qattiq modda 200 ml toluolda eritildi. Olingan eritmada dimetilkarbamid eriganligi kuzatildi, aralashmadagi karbamid va byuretlar esa erimasdan cho‘kma holatda tushdi. Eritma byuxner varonkasida filtr qog‘oz yordamida vakuum nasosida filtirlab olindi. Olingan dimetilkarbamidli eritma 90°C haroratda qizdirish pechi yordamida bug‘latildi, olingan qattiq holatdagi oq kristal kukun moddani IQ-spektri tahlil qilindi.

Tajriba quyidagi reaksiya orqali amalga oshiriladi:





**1-rasm. Dimetilkarbamatning IQ-spektri tahlili**

dimetilkarbamidning IQ spektri tahlili bo'yicha quyidagi xulosalarni berish mumkin:

1. **3329.20  $\text{sm}^{-1}$**  – bu diapazon, odatda,  $-\text{OH}-\text{OH}-\text{OH}$  yoki  $-\text{NH}-\text{NH}-\text{NH}$  bog'lariga tegishli bo'lishi mumkin. Agar moddada gidroksil yoki amin guruhlari mavjud bo'lsa, ular bu sohaga to'g'ri keladi.
2. **2933.37  $\text{sm}^{-1}$  va 2834.83  $\text{sm}^{-1}$**  – bu piklar, odatda, alkanlarning  $-\text{C}-\text{H}-\text{C}-\text{H}-\text{C}-\text{H}$  ( $\text{sp}^3$  gibridlashgan uglerod bilan bog'langan) valentli tebranishlariga to'g'ri keladi. Bu signallar metil guruhlarga xos bo'lishi mumkin.
3. **1686.43  $\text{sm}^{-1}$  va 1624.13  $\text{sm}^{-1}$**  – bu diapazon  $-\text{C}=\text{O}-\text{C}=\text{O}-\text{C}=\text{O}$  (karbonil) guruhlarga xos valentli tebranishlarga tegishli. Karbonil guruhining mavjudligi karbonat yoki karbamat guruhlarga ishora qilishi mumkin.
4. **1460.67  $\text{sm}^{-1}$  va 1388.60  $\text{sm}^{-1}$**  – bu piklar, odatda, metil yoki metilen guruhlardagi  $-\text{CH}_3-\text{CH}_3-\text{CH}_3$  yoki  $-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{CH}_2$  deformatsiya tebranishlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.
5. **1028.43  $\text{sm}^{-1}$**  – bu diapazon, odatda, efir guruhlarga tegishli bo'lgan  $-\text{C}-\text{O}-\text{C}-\text{O}-\text{C}-\text{O}$  tebranishlariga mos keladi. Bu signal efir yoki karbonat guruhlarning mavjudligini ko'rsatishi mumkin.
6. **779.24  $\text{sm}^{-1}$  va 669.37  $\text{sm}^{-1}$**  – bu diapazonlar aloqa yoki saqlash guruhlarning o'ziga xos tebranishlariga ishora qiladi, bular orqali molekula tuzilmasini ko'rib chiqish mumkin.

7.  $597.93 \text{ cm}^{-1}$  – bu pikni turli hil saqlash tebranishlari yoki og‘ir elementlar bilan bog‘langan guruhlarga taalluqli deb hisoblash mumkin.

Ta‘riflangan piklar dimetilkarbamid molekulasi uchun xos bo‘lib, unda  $-\text{C}=\text{O}-\text{C}=\text{O}$  karbonil guruhi,  $-\text{C}-\text{H}-\text{C}-\text{H}-\text{C}-\text{H}$  alkan guruhlari va  $-\text{C}-\text{O}-\text{C}-\text{O}-\text{C}-\text{O}$  efir guruhlari borligi haqida ma‘lumot beradi. Bu spektr karbonat yoki karbamat guruhlarning mavjudligini tasdiqlaydi.

### Olingan ishning muhokamasi

Sintez qilib olingan dimetilkarbamidni to‘g‘ridan-to‘g‘ri haydab olingan AI-80 markali benzina sinab ko‘rildi va bunda benzinni oktan sonini oshirganligi sinab ko‘rildi. Har xil turdagi benzina turlicha foiz massada qo‘llanilganda turlicha birlikka oshirdi. AI-80 markali benzina 1,5 % qo‘llanilganda 7,5 birlikka, 2% qo‘llanilganda 9 birlikka, 3% qo‘llanilganda 12 birlikka, 5% qo‘llanilganda 15 birlikka oshirganligi o‘rganildi. Bu qo‘shimcha tarkibida metall yo‘qligi tarkibi faqat organik modda bo‘lganligi uchun yongan vaqtda karbonat anhidrid va suv hosil bo‘ladi. Avtomobilni mator qismi korroziyaga uchratmaydi, kolsa va porshinlarni chizmaydi va sindirmaydi, avtomobil bir meyarda taqillamasdan ishlaydi.

### XULOSA

Olingan dimetilkarbamidni oktan soni past bo‘lgan benzina har xil foiz miqdorda sinab ko‘rilganda yaxshi natija berdi va benzinni oktan sonini oshirganligi isbotlandi, bu oktonamer va UIT-85 apparatlarida sinab ko‘rildi. Hosil bo‘lgan dimetilkarbamidni suyuqlanish harorati aniqlandi. Toza holda ajratib olingan dimetilkarbamidni IQ-spektri tahlil qilindi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sharaf Faruk. A. M. Antidetonnatsionniye doavki na osnove sinergeticheskix smesey oksigenatov k benzinovim toplivam // Dissertatsiya kandidat texnicheskix nauk. Kazan. 2018. –114 s.
2. Gustiana Awaludin Sobarsaha, Nuryoto Nuryoto, Jayanudin Jayanudina. Article review: Comparison of octane booster additive for gasoline // TEKNIKA: JURNAL SAINS DAN TEKNOLOGI VOL 17 NO 02 (2021) pp/150-157.
3. Papok, K.K. Ximotologiya topliv i smazochnix masel/ K.K. Papok. – M.: Voenizdat, 1980. – 192 s.
4. Gureyev, A.A. Isparyayemost topliv dlya porshnevix dvigateley/ A.A. Gureyev, G.M. Kamfer. – M.: Ximiya, 1982. – 193 s.



5. Nekrasov, Y.G. Smazochkiye materiali dlya dvigateley vnutrennego sgoraniya / Y.G. Nekrasov, A.L. Novoselov. – Barnaul: Izd-vo AltGTU, 2006. – 169 s.
6. Gureyev, A.A., Azev, V.S. Avtomobilniye benzini. Svoystva i primeneniye. Uchebnoye posobiye dlya vuzov. M.: Neft i gaz, 1996. - 444 s.
7. Levinbuk, M.I. Snijeniye summarnogo sodержaniya aromatcheskix uglevodorodov i benzola v riformatax / M.I. Levinbuk // Mir nefteproduktov. -2010. - № 6. - S. 7-12.
8. Nekrasov, Y.G., Romanova, YE.V., Yeliseyeva, O.A. Osnovi ximmotologii avtomobilnix topliv i masel: uchebnoye posobiye.- Alt. gos. texn. un-t, BTI. Biysk: Izd-vo Alt. gos. texn. un-ta, 2008. - 129 s.
9. Chirkova, Y.N. Sovremenniye trebovaniya k avtomobilnomu benzinu [Elektronniy resurs] / Y.N. Chirkova, I.V. Arxipov // «Nauchno-prakticheskiy elektronniy jurnal Alleya Nauki».-2018.- №5 (21). – Rejim dostupa.
10. Ahmedov O., Beknazarov H., Fayziyev J. OKTAN SONI PAST BO‘LGAN TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI HAYDAB OLINGAN BENZINLARNING OKTAN SONI OSHIRUVCHI QO ‘SHIMCHALAR SINTEZI VA IQ-SPEKTRI TAXLILI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – №. 5 (42).
11. O.N. Norboyev, S.M. Jovliyev. (2023). Donni maydalash texnologik jarayonini avtomatlashtirish tavsifi va tahlili // Innovations in Technology and Science Education, 2023/3/1, 2-7, 615-626
12. O.N. Norboyev, S.M. Jovliyev. (2023). Donni maydalash texnologik jarayonini avtomatlashtirish tavsifi va tahlili // Innovations in Technology and Science Education, 2023/3/1, 2-7, 615-626
13. Jovliyev , S. M. o‘g‘li. (2023). O‘LCHASH O‘ZGARTKICHLARI VA ULARNI ASBOBLARNING O‘LCHASH CHEGARASI (DIAPAZONI)NI KENGAYTIRISHDA ISHLATILISHI // Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 695–700
14. O.N. Norboyev, S.M. Jovliyev. (2023). MATLAB DASTURINIG SIMULINK PAKITIDAN FOYDALANIB KONTUR TOKINI IMITATSION MODELLASHTIRISH VA OPTIMALLASHTIRISH // Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 870-881
15. Jovliyev Sarvar Mustafo o‘g‘li. O‘LCHASH NATIJALARINI QAYTA ISHLASH // Educational Research in Universal Sciences. November 2023, Volume 2, Issue 11, page 264-269
16. Jovliyev Sarvar Mustafo o‘g‘li. Turli tizimdagi o‘lchash asboblarni tekshirish va xatoliklarini aniqlash // Educational Research in Universal Sciences. November 2023, Volume 2, Issue 11, page 283–290

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14564118>

## INDUKTIV DATCHIKNI PARAMETRLARINI ANIQLASH

**Dilnoz Jovliyeva Mustofa qizi**

Xalqaro innovatsion universiteti Aniq fanlar,  
yer kadastrasi va kommunal xo'jaligi kafedrasida o'qituvchisi  
e-mail: [dilziyoo@gmail.com](mailto:dilziyoo@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Bilimlarni o'zlashtirish muammosi kasbiy ta'lim o'qituvchilarini azaldan bezovta qilib kelgan. Hayotda insonning deyarli har qanday harakati, nafaqat o'rganish, balki ma'lum bir bilimlarni, u yoki bu ma'lumotlarni o'zlashtirish va qayta ishlash zarurati bilan bog'liq. O'rganishni o'rgatish, ya'ni ma'lumotni assimilyatsiya qilish va to'g'ri ishlashga o'rgatish - bu o'quv faoliyatiga asoslangan yondashuvning asosiy tezisi. Ushbu maqolada Elektromagnitli datchiklar mexanik siljishlarini, o'lchash natijalarini matematik tahlil etish uslubiyotini, elektromagnit zanjirning parametrlari o'zgarishini hisobiga elektr kattaliklariga aylantirib berishi haqida ma'lumot topish o'rganilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Elektromagnit datchik, parametr, kirish kattaligi, chiqish kattaligi, generator, mexanik siljish, elektr zaryad, o'zak, cho'lg'am, yakor.*

## ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПАРАМЕТРОВ ИНДУКТИВНОГО ДАТЧИКА

**Дилноз Жовлиева Мустофа қизи**

Преподаватель кафедры Точных наук, кадастра земли и коммунального хозяйства Международного инновационного университета.  
e-mail: [dilziyoo@gmail.com](mailto:dilziyoo@gmail.com)

**Аннотация:** *Проблема усвоения знаний давно беспокоит преподавателей профессионального образования. В жизни почти каждое действие человека связано не только с обучением, но и с необходимостью усваивать и обрабатывать определённые знания и информацию. Учить учиться, то есть учить усваивать информацию и правильно её использовать, - это основной тезис подхода, основанного на учебной деятельности. В данной статье рассматриваются методы расчета параметров электромагнитных датчиков, методики математического анализа результатов измерений, а также*

информация о преобразовании изменений параметров электрических цепей в электрические величины.

**Ключевые слова:** Электромагнитный датчик, параметр, входная величина, выходная величина, генератор, механическое смещение, электрический заряд, сердечник, обмотка, якорь.

## DETERMINATION OF THE PARAMETERS OF AN INDUCTIVE SENSOR

**Dilnoz Jovlieva Mustofa qizi**

Lecturer at the department of Exact sciences, land cadastre, and municipal services at the International innovation university.

e-mail: [dilziyoo@gmail.com](mailto:dilziyoo@gmail.com)

**Annotation:** *The problem of mastering knowledge has long troubled vocational education teachers. In life, almost every human action is related not only to learning but also to the necessity of assimilating and processing certain knowledge and information. Teaching how to learn, that is, teaching how to assimilate information and use it correctly, is the main thesis of the approach based on educational activities. This article discusses methods for calculating the parameters of electromagnetic sensors, methodologies for the mathematical analysis of measurement results, and information about converting changes in parameters of electromagnetic circuits into electrical quantities.*


**Keywords:** *Electromagnetic sensor, parameter, input quantity, output quantity, generator, mechanical displacement, electric charge, core, winding, armature.*

Elektromagnitli datchiklar mexanik siljishlarini, elektromagnit zanjirning parametrlari o'zgarishini hisobiga elektr kattaliklariga aylantirib berish uchun xizmat qiladi. Elektromagnit datchiklarning parametrlarini o'zgartirish magnit zanjiri elementlarini (o'zak yoki yakor) yoki elektr zanjirlarining elementlarini (cho'lg'am) mexanik siljishi natijasida sodir bo'lishi mumkin. Bunday siljishlar natijasida cho'lg'amning induktivligi yoki o'zaro induktivligi o'zgarishi mumkin. Shuning uchun elektromagnit datchiklar guruhiga kiritish mumkin.

Elektromagnitli datchiklar yordamida mexanik kuchlar, bosim, temperatura, magnit materiallar xususiyatlari, suyuqlik va gazlarning sarfini va x.k. avtomatik o'lchashni amalga oshirish mumkin.

Elektromagnitli datchiklar quyidagi afzalliklarga ega: konstruksiyaning soddaligi va arzonligi, mexanik mustahkamligi, yuqori ishonchlilik, o'zgaruvchan tok tarmog'ida ishlash imkoniyati, katta quvvatni hosil qilish imkoniyati va x.k.

Ularning kamchiliklari: chiqish kattaligining tashqi elektromagnit maydonlarning ta'siri, hamda faqat o'zgaruvchan tok tarmog'ida ishlash mumkinligi. Eng sodda induktiv datchik magnit o'tkazgichi o'zgaruvchan S havo tirqishiga ega bo'lgan drosseldan iborat.



1- rasm. Induktiv datchik.

U elektrotexnik po'latdan tayyorlangan o'zakka 1 joylashtirilgan cho'lg'am 2 va qo'zg'aluvchan yakor 3 dan iborat.

Cho'lg'am o'zgaruvchan tok tormog'iga ulanganda hosil bo'lgan magnit oqim F asosan o'zak va yakor orqali aniqlanadi. Yakor boshqarish ob'ekti bilan mexanik bog'langan holda o'zgarsa, u holda u bilan birga yakor ham o'z holatini o'zgartiradi. Natijada esa havo tirqishi  $\delta$  ning uzunligi ham o'zgaradi. Ma'lumki, cho'lg'amning induktivligi havo tirqishi uzunligiga bog'liq.

$$L = \frac{W^2}{R_m + 2\delta / (\mu_0 * S_M)}$$

W - cho'lg'am o'ramlar soni,

$R_m$  - magnit o'tkazgichning magnit qarshiligi,

$\delta$  - havo tirqishi uzunligi,

$\mu_0$  - havoning magnit kirituvchanligi,

$S_M$  - magnit o'tkazgich havo tirqishining ko'ndalang kesim yuzi.

Cho'lg'amning induktiv qarshiligi


$$X_L = \omega L = \frac{\omega * W^2}{R_m + 2\delta / (\mu_0 * S_m)}$$

U holda cho'lg'amdan o'tayotgan tok kuchi

$$I = \frac{W}{Z} = \frac{W}{\sqrt{R^2 + \omega^2 \left[ \frac{W^2}{R_m + 2\delta / (\mu_0 * S_m)} \right]^2}}$$

bu erda  $W$  – tarmoq kuchlanishi,  $R$ -cho‘lg‘amning aktiv qarshiligi.

Ifodadan ko‘rinib turibdiki, bu datchik mexanik siljishlarni tok kuchiga aylantirib berar ekan. Datchikning statik xarakteristikasi  $I=f(x)$  2-rasmda ko‘rsatilgan.



2- rasm. Induktiv datchik statik xarakteristikasi.

Xarakteristikaning AI qismi chiziqli bo‘lib, u ishchi qism deb ataladi.

Induktiv datchik mexanik siljishni magnit va elektr zanjiri parametirining o‘zgarishiga aytiladi. Induktiv datchikning ishlash prinsipi g‘altak o‘zagining siljishi orqali induktivlik  $L$  yoki o‘zaro induktivlik  $M$  ni o‘zgartirishga asoslangan.

1) Parametrlarni o‘zgartirish ketma-ketligi.

$$F \square \square_v \square R_m \square L \square X_L \square Z \square I,$$

Bu erda:  $F$  - kuch;

$\square_v$  – xavo bo‘shlig‘i uzunligi;

$R_m$  – magnit qarshilik;

$L$  - induktivlik;

$X_L$  – induktiv qarshilik;

$Z$  – to‘la qarshilik;

$I$  - tok.

2) Datchik induktivligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$L = (2 \delta_B) \pi n^2 S_M \cdot 10^{-7}$$

$\square_v$  – Xavo bo‘shlig‘i uzunligi;

$n$  – o‘ramlar soni;

$S_m$  – o‘tkazgich kesim yuzasi.

**Namuna uchun masala:**

berilgan malumotlar:

$$\square_{v1} = 0,4 \text{ mm} = 0,0004 \text{ m} = 4 \cdot 10^{-4} \text{ m};$$

$$\square_{v2} = 0,6 \text{ mm} = 0,0006 \text{ m} = 6 \cdot 10^{-4} \text{ m};$$

$$\square_{v3} = 0,8 \text{ mm} = 0,0008 \text{ m} = 8 \cdot 10^{-4} \text{ m};$$

$$S_m = 40 \text{ mm}^2 = 0,00004 \text{ m}^2 = 4 \cdot 10^{-5} \text{ m}^2;$$

$$n = 16000 \text{ ta.}$$


**Echish :**

$$L = (2 \cdot 0,0004) \cdot 3,14 \cdot 16000^2 \cdot 0,00004 \cdot 10^{-7} = 16,1 \text{ (Gn)}$$

$$L = (2 \cdot 0,0006) \cdot 3,14 \cdot 16000^2 \cdot 0,00004 \cdot 10^{-7} = 10,7 \text{ (Gn)}$$

$$L = (2 \cdot 0,0008) \cdot 3,14 \cdot 16000^2 \cdot 0,00004 \cdot 10^{-7} = 8$$

Grafik quramiz  $L = f(\square v)$  L(Gn)



**ADABIYOTLAR**

1. O.N. Norboyev, S.M. Jovliyev. (2023). Donni maydalash texnologik jarayonini avtomatlashtirish tavsifi va tahlili // Innovations in Technology and Science Education, 2023/3/1, 2-7, 615-626
2. O.N. Norboyev, S.M. Jovliyev. (2023). Donni maydalash texnologik jarayonini avtomatlashtirish tavsifi va tahlili // Innovations in Technology and Science Education, 2023/3/1, 2-7, 615-626
3. Jovliyev , S. M. o'g'li. (2023). O'LCHASH O'ZGARTKICHLARI VA ULARNI ASBOBLARNING O'LCHASH CHEGARASI (DIAPAZONI)NI KENGAYTIRISHDA ISHLATILISHI // Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 695–700
4. O.N. Norboyev, S.M. Jovliyev. (2023). MATLAB DASTURINIG SIMULINK PAKITIDAN FOYDALANIB KONTUR TOKINI IMITATSION MODELLASHTIRISH VA OPTIMALLASHTIRISH // Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 870-881
5. Jovliyev Sarvar Mustaf o'g'li. O'LCHASH NATIJALARINI QAYTA ISHLASH // Educational Research in Universal Sciences. November 2023, Volume 2, Issue 11, page 264-269

6. Jovliyev Sarvar Mustafo o'g'li. Turli tizimdagi o'lchash asboblarni tekshirish va xatoliklarini aniqlash // Educational Research in Universal Sciences. November 2023, Volume 2, Issue 11, page 283–290
7. Jovliyev Sarvar Mustafo o'g'li. (2022). MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISH VA TAXLIL QILISH STATISTIK USULLARINING YETTI INSTRUMENT USULLARI // EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(6), 41–45
8. Jovliyev Sarvar Mustafo o'g'li. (2022). TEXNIKA OLIY O'QUV YURTLARI TA'LIMIDA KEYS TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH // EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(5), 791–794
9. Zhovliev S.M. Specialty of technological processes and production automation – profession of the XXI century // ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. –2021, May. –T.2. №.05. –C. 15-19
10. Mallayev A.R., Sharipov G.Q., Sodikov A.R., Zhovliev S.M. Mathematical modeling of dynamics formation of hydrates at pipeline natural gas transport // International Journal For Innovative Engineering and Management Research. – 2021, April. –T.10. №.4. –C. 31-35
11. Raximov A.X., Jovliyev S.M. Xolbutayeva X.E. Radio monitoring and recognition of radio emissions radio electronic equipment // International Journal For Innovative Engineering and Management Research. –2021, April. – T.10. №.4. –C. 506-507

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14564125>

## QISHLOQ XO‘JALIK TEXNIKALARINI SAQLASH USULLARI VA MUAMMOLARI

**Azizbek Asomiddinovich Xojimatov**

Andijon mashinasozlik instituti

[aziznido20@gmail.com](mailto:aziznido20@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Qishloq xo‘jalik texnikasi tashqi o‘zgaruvchan muxitda ishlaydi. Ya‘ni ob-havo, namlik, issiqlik, tuproq, tuzlar, mineral va organik o‘g‘itlar, biologik qoldiqlar. Bular hammasi vaqt davomida texnikaning asosiy ishchi qismlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatib keladi. Bu ta‘sirlarning eng asosiylari zanglab yemirilishdir. Ushbu maqolada qishloq xo‘jalik korxonalarida qo‘llaniladigan texnikalarini saqlash usullari va muammolari qaratilgan ilmiy-tadqiqot natijalari keltirib o‘tilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Qishloq xo‘jaligi, zang, yemirilish, ximoya, qoplama, elastik, metal, modifikator, texnika, xizmat ko‘rsatish, fermer xo‘jaligi, klaster.*

## METHODS AND PROBLEMS OF STORAGE OF AGRICULTURAL TECHNIQUES

### ABSTRACT

*Agricultural machinery works in a changing external environment. That is, weather, humidity, heat, soil, salts, mineral and organic fertilizers, biological residues. All these have had a negative impact on the main working parts of the equipment over time. The most important of these effects is corrosion. In this article, the results of scientific research focused on the methods and problems of maintaining the equipment used in agricultural enterprises are presented.*

**Key words:** *Agriculture, rust, decay, protection, coating, elastic, metal, modifier, technique, service, farm, cluster.*

**KIRISH.** Qishloq xo‘jaligi jarayonlarida mexanizatsiyalashning joriy etilishi dehqonchilik tizimining har tomonlama rivojlanishiga asos bo‘ladi. Ma‘lumki, fermerlar uchun eng katta muammolar ekinlarni mavsumiy ekish, hosilni o‘ribyig‘ib olish va ularga dastlabki ishlov berish hamda saqlash jarayonlarini o‘z vaqtida



bajarilmagan hollarida yuz beradi. Ayniqsa, shuni esda tutish kerakki, “Agar qishloq xo‘jaligida qaysidir jarayonni bajarishga kechikish, bu barcha jarayonni bajarishga kechikish demakdir” (Kato, Miloddan avvalgi 2-asr). Qishloq xo‘jaligi jarayonlarida mehnat unumdorligiga erishish uchun mexanizatsiyani to‘g‘ri joriy etish lozim. Har bir turdagi ekinga o‘ziga xos bo‘lgan ishlov berilishiga qarab jarayonlarni mexanizatsiyalash kerak bo‘ladi. Respublikamiz mustaqillikka erishgan birinchi kundan boshlab, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini eng zamonaviy, mukammal qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta‘minlash uchun xorijiy davlatlarning ilg‘or firmalari bilan hamkorlikda qishloq xo‘jaligi texnikalarini mamlakatimizda ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birga davlatimiz tomonidan fermer xo‘jaliklariga texnikalardan foydalanishning yangi yo‘nalishlarini yaratib berilganligi, ya‘ni, o‘zining shaxsiy texnikasidan, boshqa korxonalar va tashkilotlarning texnikalaridan shartnoma asosida yoki ijaraga olib foydalanish imkoniyatlari borligini alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin [1, 2, 3, 4, 5, 6, 7].

#### **ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA**

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari etishtirish asosan sug‘oriladigan dehqonchilik sharoitida amalga oshiriladi. Ma‘lumki, qishloq xo‘jaligining barcha sohalarini mexanizatsiyalashtirish halq faravonligini oshirishda eng muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Suv zaxirasini etarli emasligi eksintensiv usulda mahsulotlar etishtirishni, ya‘ni, yangi ekin maydonlarini yaratish hisobiga mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish imkoniyatini chegaralanganligi uchun kelajakda intensiv usulda ekinlar hosildorligini oshirish hisobiga mahsulotlarni ko‘paytirish istiqbolli yo‘nalish qilib belgilangan. Bunda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini to‘liq mexanizatsiyalashtirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini mexanizatsiyalashtirishning asosiy maqsadi, sodda qilib aytganda, mahsulotlarni etishtirishda mehnat sarfini kamaytirishdan iborat [8, 9, 10, 11].

Qishloq xo‘jaligi ishlari juda katta maydonlarda va hududiy xilma xil sharoitlarda olib boriladi. Unda yer (asosiy ishlab chiqarish vositasi), yorug‘lik, issiqlik, suv va tirik organizmlar - o‘simlik va hayvonlardan foydalaniladi. Qishloq xo‘jaligining ishlab chiqarish davri ish davri bilan mos tushmaydi. Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari - dehqonchilik va chorvachilik. Ular ham o‘z navbatida bir necha tarmoqlarga bo‘linadi (dehqonchilikda-dalachilik, sabzavotchilik, polizchilik, bog‘dorchilik, o‘rmon xo‘jaligi va boshqa; chorvachilikda-qoramolchilik, qo‘ychilik, yilqichilik, cho‘chqachilik, parrandachilik, asalarichilik, pillachilik va boshqalar); o‘z navbatida, dehqonchilik va chorvachilik tarmoklari ekiladigan ekinlar (g‘allachilik, sholikorlik,

paxtachilik) va chorva mollari turlari (qoramol, qo'y, ot, tuya) bo'yicha guruhlanadi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida xar bir ish jarayoni maxsus texnikalar asosida bajariladi. Bu texnikalar, ish unumdorligini bir necha barobarga ortiradi [12, 13].

Qishloq xo'jalik texnikasi tashqi o'zgaruvchan muxitda ishlaydi. Ya'ni ob-havo, namlik, issiqlik, tuproq, tuzlar, mineral va organik o'g'itlar, biologik qoldiqlar. Bular hammasi vaqt davomida texnikaning asosiy ishchi qismlariga salbiy ta'sir ko'rsatib keladi. Bu ta'sirlarning eng asosiylari zanglab yemirilishdir. Zanglab yemirilish (korroziya) kimyoviy ta'sirlar va iqlim sharoiti natijalari asosida paydo bo'lib, bir necha turlarga bo'linadi. Atmosfera ta'siridagi yemirilish, tuproq osti ta'sirida yemirilish, erigan tuzlar ta'siridagi yemirilish, biokimyoviy yemirilish, lokal yemirilish, kimyoviy yemirilish. Qishloq xo'jalik texnikalarini zanglab yemiruvchi unsurlar bu tuproq va tuproq tarkibidagi mineral va organik o'g'itlar (erga singmagan, o'simlik o'zlashtirmagan tuzlar). Metallarning atmosfera ta'siridagi yemirilish tezligiga metal yuzasida paydo bo'lgan namlik plyonkasining tarkibi, harorati, boshqa metallar bilan ta'sirlashishi ham ahamiyat kasb etadi [14, 15, 16, 17, 18, 19].

### **NATIJARLAR**

Qishloq xo'jaligi texnikalari (traktorlar, kombaynlar, o'g'it purkagichlar va boshqa mexanizmlar) qishloq xo'jaligida hosildorlikni oshirishda va mehnat unumdorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu texnikalarning uzoq muddat ishlashi va samaradorligini saqlab qolish uchun ularni to'g'ri saqlash muhim ahamiyatga ega. Quyida texnikalarni saqlashning asosiy usullari va ushbu sohada uchraydigan muammolar ko'rib chiqiladi [20, 21, 22, 23, 24].

#### **Saqlash usullari:**

- ✓ Maxsus saqlash joylari tashkil etish:

Qishloq xo'jalik texnikasi ochiq maydonda emas, balki yopiq va quruq joylarda saqlanishi kerak. Saqlash joylari shamollatiladigan, namlik darajasi past va quyosh nuridan himoyalangan bo'lishi lozim.

- ✓ Konservatsiya qilish:

Texnikani uzoq muddatga saqlashdan oldin, uning barcha mexanizmlari tozalab, yog' surkalishi kerak. Akkumulyatorlar chiqarib olinadi va quvvat darajasi saqlanadi. Metall qismlarga zanglashni oldini olish uchun maxsus qoplamalar qo'llaniladi.

- ✓ Texnik xizmat ko'rsatish:

Saqlashdan oldin va keyin texnikaga to'liq texnik xizmat ko'rsatish talab etiladi. Motor yog'lari, filtrlar va boshqa sarf materiallarini almashtirish muhim.

- ✓ Mavsumiy saqlash:

Qish yoki yoz mavsumida ishlatilmaydigan texnikalar uchun maxsus saqlash rejimi qo'llaniladi.

Shinalarning bosimi nazorat qilinib, ehtiyot qismlar olib tashlanadi yoki izolyatsiya qilinadi [25, 26, 27, 28, 29, 30, 31, 32, 33, 34, 35, 36].

## **MUHOKAMA**

### **Muammolar.**

✓ Saqlash sharoitlarining yetarli emasligi: Ko‘plab fermer xo‘jaliklarida maxsus omborxonalar va yopiq maydonlar yo‘qligi sababli texnika ochiq havoda qoladi. Bu esa uning tez eskirishiga olib keladi.

✓ Konservatsiya texnologiyalarining qo‘llanmasligi: Texnikani to‘g‘ri saqlash bo‘yicha bilimlarning yetishmasligi ko‘pincha nosozlik va ishdan chiqishga olib keladi.

✓ Moliyaviy cheklovlar: Saqlash uchun zarur bo‘lgan vositalar va jihozlar xarid qilishda mablag‘ yetishmovchiligi.

✓ Kadrlarning yetishmasligi: Texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha malakali mutaxassislarning kamligi.

✓ Tabiiy sharoitlarning salbiy ta‘siri: Yomg‘ir, qor va quyosh nuri texnikaning metall qismlarini zanglatishi va plastik qismlarining yaroqsiz holga kelishiga olib keladi [37, 38, 39, 40, 41, 42, 43, 44, 45, 46, 47, 48, 49].

### **Muammolarning yechimlari:**

✓ Maxsus saqlash infratuzilmasini yaratish va takomillashtirish: Fermer xo‘jaliklarida saqlash uchun yopiq angarlar va maxsus qoplamalar bilan ta‘minlangan hududlar tashkil etish kerak.

✓ Fermerlar uchun treninglar tashkil etish: Qishloq xo‘jaligi texnikasini saqlash va xizmat ko‘rsatish bo‘yicha o‘quv kurslari tashkil etish.

✓ Davlat qo‘llab-quvvatlashi: Moliyaviy ko‘mak va subsidiya dasturlari orqali fermer xo‘jaliklariga yordam ko‘rsatish.

✓ Innovatsion texnologiyalarni joriy etish: Texnikalarni saqlashda yangi materiallar va avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish [50, 51, 52, 53, 54, 55].

## **XULOSA**

Qishloq xo‘jalik texnikalarining samarali va uzoq muddatli ishlashini ta‘minlash uchun ularni to‘g‘ri saqlash muhim ahamiyatga ega. Saqlash sharoitlarini yaxshilash, texnik xizmat ko‘rsatishni muntazam amalga oshirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali ushbu sohada yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish mumkin.

## ADABIYOTLAR

- 1.Хожиматов, А. А., & Мухаммадисаков, А. И. (2023). Общая характеристика коррозионно-активных сельскохозяйственных сред. *Scientific Impulse*, 1(8), 1014-1021.
- 2.Хожиматов А. Innovatsion gultuvak //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – Т. 1. – №. 20.
- 3.Хожиматов А. А. et al. Qishloq xojalik texnikalari metal qismlariga agressiv muhitning ta'siri //international conferences. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 496-503.
- 4.Хожиматов А. А., Мамажонов З. А. Mavsumiy qishloq xo 'jalik texnikalarini ishlatish va saqlash shartlarining texnika sifatiga ta'siri //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 40-45.
- 5.Hozhimatov A. Analysis of destruction and protection of details of agricultural machinery //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 383. – С. 04064.
6. Беккулов Б. Р., Ибрагимжанов Б. С., Рахмонкулов Т. Б. ПЕРЕДВИЖНОЕ СУЩИЛЬНОЕ УСТРОЙСТВО ДЛЯ ЗЕРНИСТЫХ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРОДУКТОВ //Современные тенденции развития аграрного комплекса. – 2016. – С. 1282-1284.
7. Ибрагимджанов Б. Х., РЕКОМЕНДАЦИЙ П. ВОССТАНОВЛЕНИИ ДЕТАЛЕЙ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ТЕХНИКИ СПОСОБАМИ ПЛАЗМЕННОЙ НАПЛАВКИ И НАПЫЛЕНИЯ //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2023. – Т. 2. – №. 16. – С. 184-193.
8. Беккулов Б. Р., Ибрагимжанов Б. С., Тожибоев Б. М. Дон куритишнинг замонавий курилмалари //Инновацион ривожланиш муаммолари: ишлаб чикариш, таълим, илм-фан Вазирлик микёсидаги илмий-техникавий анжуман материаллари туплами.-Андижон: АндМИ. – 2017. – С. 381-385.
9. Ибрагимджанов Б. Х. и др. РОТОР ПЛАСТИКАЛАР ҲАРАКАТИНИ БАРҚАРОРЛАШТИРИШ //ТА'ЛИМ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАҲЛИЛИ ONLAYN ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 323-331.
10. Ибрагимжонов Б. Х., Иминов Б. И., ўғли Зулфиқоров Д. Р. УЗУМБОҒЛАР УЧУН КЎЧМА МЕХАНИК НАРВОНИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ КУЧЛАР ТАХЛИЛИ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 473-480.
- 11.YO'LDASHEV B., MUKHRIDDIN S. Experimental Assessment of Parameters Influencing Crack Development in Concrete Structures //Science Promotion. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 1-5.
- 12.Kiliánová K., Kočková P., Kostolányová K. BREAKING BOUNDARIES IN EDUCATION: THE AI (R) EVOLUTION IN THE WORLD OF GRAPHIC DESIGN //ICERI2024 Proceedings. – IATED, 2024. – С. 9286-9292.
- 13.Mamasalievna M. G. Enhancing Engineering Computer Graphics Education: A Focus on AutoCAD Program for Student Learning //Texas Journal of Engineering and Technology. – 2024. – Т. 30. – С. 26-28.

14. Satvoldieva U. D. CURRENT ISSUES OF TRAINING UNDER THE CREDIT-MODULAR SYSTEM //European Journal of Emerging Technology and Discoveries. – 2024. – Т. 2. – №. 4. – С. 119-124.
15. Solijonov K. et al. First record of *Hemiclepsis marginata* (OF Müller, 1773)(Hirudinida: Glossiphoniidae) from the Ferghana Valley, Uzbekistan //Ecologica Montenegrina. – 2024. – Т. 75. – С. 74-84
16. Dilfuza U. et al. OILAVIY POLKLINIKALAR HAMSHIRALARINING ISH JARAYONLARINI AVTOMATLASHTIRISH VA IDENTIFIKATSIYALASH //FAN, JAMIYAT VA INNOVATSIYALAR. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 46-49.
17. Umarova D. GRAFIK FANLARNI O‘RGANISHDA KOMPYUTER DASTURLARINI O‘QUV JARAYONIGA TATBIQ ETISH MUAMMOLARI //Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions". – 2023.
18. Umarova D. S. Possibilities of the AutoCAD Program in Creating Electronic Textbooks for the Course "Engineering and Computer Graphics" //Texas Journal of Engineering and Technology. – 2023. – Т. 21. – С. 50-53.
19. Умарова Д. С. ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ВЫПОЛНЕНИИ ГРАФИЧЕСКИХ РАБОТ //Universum: технические науки. – 2021. – №. 11-1 (92). – С. 38-40
20. UMAROVA, D. (2022). *Formation of creative creativity skills among students. «НАУКА И ИННОВАЦИИ, ОБРАЗОВАНИЕ И ПЕДАГОГИКА: ВЫЗОВЫ ВРЕМЕНИ И КРЕАТИВНЫЕ РЕШЕНИЯ».*
21. UMAROVA, D. (2023). *BASIC DUTIES OF DIGITAL PRODUCTION.*  
URL: <https://scienceweb.uz/publication/15891>
22. Джалилов М. Л., Хаджиева С. С., Иброхимова М. М. Общий анализ уравнения поперечного колебания двухслойной однородной вязкоупругой пластинки //International Journal of Student Research. – 2019. – №. 3. – С. 111-117.
23. Джалилов, М. Л., Хаджиева, С. С., & Алижонова, Х. (2024). КОЛЕБАНИЯ КУСОЧНО-ОДНОРОДНЫХ ДВУХСЛОЙНЫХ ПЛАСТИН. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(20), 248-254.
24. Каюмов У. А., Хаджиева С. С. НЕКОТОРЫЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ПРИМЕНЕНИЮ ПОРОШКОВЫХ СПЛАВОВ ПРИ ВОССТАНОВЛЕНИИ ДЕТАЛЕЙ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ТЕХНИКИ СПОСОБАМИ ПЛАЗМЕННОЙ НАПЛАВКИ И НАПЫЛЕНИЯ //The 4th International scientific and practical conference "Science and education: problems, prospects and innovations"(December 29-31, 2020) CPN Publishing Group, Kyoto, Japan. 2020. 808 p. – 2020. – С. 330.
25. Khadjieva S. S. VIBRATIONS OF PIECE-HOMOGENEOUS PLATES //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 488-496.
26. Хаджиева С. С. ОПРЕДЕЛЕНИЕ СТАБИЛЬНОСТИ ВАЛОВ В МАШИНОСТРОЕНИИ //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 446-453.
27. Хаджиева С. С. СОВРЕМЕННЫЕ КОМПОЗИЦИОННЫЕ МАТЕРИАЛЫ //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 1574-1580.

28. Хаджиева С. С., Алижонова Х. ВИДЫ ДЕФОРМАЦИЙ И ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ИМ СТУДЕНТОВ //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 2. – №. 13. – С. 354-356.
29. АНАЛИЗ ТЕХНОЛОГИИ ВОССТАНОВЛЕНИЯ ЗУБЬЕВ ЭКСКАВАТОРОВ З.Д. Рустамджон сын // ТВОРЧЕСКИЙ ЛЕКТОР. - 2023. - Т. 3. – нет. 34. - С. 179-182.
30. Ибрагимджонов Б. Х. , Иминов Б. Я. , сынок Зульфикаров Д. Р. ВИНОГРАДНИКИ ДЛЯ МОБИЛЬНЫЙ МЕХАНИК К ЛЕСТНИЦЕ ВЛИЯНИЕ ПЕРЕДАТЧИК ПОЛНОМОЧИЯ АНАЛИЗ //Образовательные исследования в области универсальных наук. - 2023. - Т. 2. – нет. 2. - С. 473-480.
31. Кадыров З., Зульфиков Д. ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА ЗАПАРИВАНИЯ ПЕТУХА НА КАЧЕСТВО ШЕЛКА-СЫРЦА //Евразийский журнал академических исследований. - 2023. - Т. 3. – нет. 1 Часть 3. – С. 159-165.
32. Мамаджонов З. А., сын Зульфиков Д. Р. ОПРЕДЕЛЕНИЕ ВЛИЯНИЯ МОРКОВИ НА РЕЖУЩУЮ КРОМКУ // МЕЖДУНАРОДНЫЙ КОНФЕРЕНЦИИ . - 2023. - Т. 1. – нет. 2. - С. 476-481.
33. Хашимов Х.Х. и др. НА ОСНОВЕ РАБОТЫ ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В НАШЕЙ РЕСПУБЛИКЕ ЭКСКАВАТОРОВ ПРОТИВ АБРАЗИВНОГО ПОЕДА ЗУБОВ СВИНЕЙ //Учебные исследования в области универсальных наук. - 2023. - Т. 2. – нет. 1 СПЕЦ. - С. 386-391.
34. Мамаджонов З.А. и др. АНАЛИЗ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДОВ ВОССТАНОВЛЕНИЯ ЗУБЬЕВ ЭКСКАВАТОРОВ, ПРИМЕНЯЕМЫХ В НАШЕЙ РЕСПУБЛИКЕ //МЕЖДУНАРОДНЫЕ КОНФЕРЕНЦИИ. - 2023. - Т. 1. – нет. 2. - С. 482-487.
35. Рустамджон огле З.Д. МЕТОДИКА МОДЕЛИРОВАНИЯ ПЕРВИЧНОЙ КРИСТАЛЛИЗАЦИИ ЗУБЬЕВ ЛОЖКИ ЭКСКАВАТОРА // Новости Образование : исследование в XXI веке . - 2024. - Т. 2. – нет. 20. - С. 255-262.
36. Жуманиязов К., Мардонов Б., Эркинов З., Парпиев Х. Определения закона движения шарика, регулирующего равномерное распределение крутки вдоль пряжи / Изв.ВУЗов. Технология легкой промышленности. – Санкт Петербург, 2016. -№3. С. 27-30.
- 37.Эркинов З., Парпиев Х., Мелибоев У., Азизов И. Устройство для кручения пряжи / Перспективные изобретения и полезные модели Республики Узбекистан. -ПВРУз. 2011г. -№2. С. 196-197.
- 38.Yusupova, R. K. (2023). Advantages and disadvantages of compact yarn devices on spinning machines. Educational Research in Universal Sciences, 2(2), 458-466.
- 39.Рузматов, Ш., Юсупова, Р. К. (2024). ДАЛЬНЕЙШЕЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРОИЗВОДСТВА КРУЧЕНОЙ НИТИ. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(20), 292-299.
- 40.Юсупова, Р. К. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРОИЗВОДСТВА КРУЧЕНОЙ НИТИ. Научный Фокус, 1(7), 507-516.

41. Юсупова, Р. К. (2023). УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УСТРОЙСТВА КРУТИЛЬНОЙ МАШИНЫ. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(3), 163-171.
42. Rano Y., Asadillo U., Go'Zaloy M. HEAT-CONDUCTING PROPERTIES OF POLYMERIC MATERIALS //Universum: технические науки. – 2021. – №. 2-4 (83). – С. 29-31.
43. Эрматов К. М. Обоснование параметров приспособления к хлопковой сеялке для укладки фоторазрушаемой пленки на посевах хлопчатника. Автореф. канд. дисс. Янгиюль, 1990. – 1990.
44. Эрматов К. М. Вращающий момент бобины с пленкой //Высшая школа. – 2017. – №. 1. – С. 117-118.
45. Шакиров Б.М., Абдухалилов О.А. Ё., Сирочов А.М. Ё. НАСОС СТАНЦИЯЛАРНИНГ СУВ ОЛИБ КЕЛУВЧИ КАНАЛИНИНГ ГИДРАВЛИК ҲИСОБИНИ БАЖАРИШ ВА ЧЎКИНДИЛАР БИЛАН КУРАШИШ (УЛУҒНОР НАСОС СТАНЦИЯСИ МИСОЛИДА) //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 7. – С. 183-189.
46. Шакиров, Б., Эрматов, К., Абдухалилов О., & Шакиров, Б. (2023). ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНАЯ УСТАНОВКА ПО ИССЛЕДОВАНИЮ ЦЕНТРОБЕЖНЫХ НАСОСОВ НАКАВИТАЦИОННЫЙ И ГИДРОАБРАЗИВНЫЙ ИЗНОС. *Scientific Impulse*, 1(5), 1737–1742. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/3297>.
47. Kobuljon Mo'minovich, E. ., Bobur Mirzo, S. ., & Oltinoy, Q. . (2023). BOMBA KALORIMETR ISHLASH JARAYONI VA XISOBI. *Scientific Impulse*, 1(5), 1800–1804. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/3320>.
48. Шакиров Б. М. и др. КОНСТРУКТИВНЫЕ РАЗРАБОТКИ ПО СНИЖЕНИЮ ИНТЕНСИВНОСТИ ИЗНОСА ДЕТАЛЕЙ ЦЕНТРОБЕЖНЫХ НАСОСОВ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 18-22.
49. o'g'li Shakirov B. M. B., qizi Shokirova N. M. THE CONCEPT OF “FAMILY” IN PHRASEOLOGY //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 1 SPECIAL. – С. 497-500.
50. Qayumov U. A., Qosimov K. Z. IKKI QAVATLI PNEVMATIK QURITISH USKUNASI MISOLIDA MAYIZ TAYYORLASH UCHUN UZUMNING URUG 'SIZ NAVLARINI ZAMONAVIY USKUNALARIDA QURITISH TECHNOLOGIYASI TAHLILI //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 9. – С. 20-23.
51. Qosimov K., Bekkulov B., Qayumov U. DEVELOPMENT OF A MODERN PNEUMATIC DRYER AND PROSPECTS FOR ITS SOLAR-TYPE WORKING PRINCIPLE //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2023. – Т. 6. – №. 3. – С. 200-205.
52. Qayumov U. PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF A MODERN PNEUMATIC DRYER OF SOLAR RADIATION TYPE AND THE PRINCIPLE OF ITS OPERATION //Open Access Repository. – 2022. – Т. 8. – №. 7. – С. 107-109.

53. Беккулов Б. Р., Атабаев К., Рахмонкулов Т. Б. ОПРЕДЕЛЕНИЕ КОЛИЧЕСТВА ШАЛЫ В СУШИЛЬНОМ БАРАБАНЕ // Бюллетень науки и практики. – 2022. – Т. 8. – №. 7. – С. 377-381.
54. Атабаев К., Мусабаев Б. М. ЗАДАЧА О РАСПРОСТРАНЕНИИ ВОЛН В БЛИЗИ РАСШИРЯЮЩЕЙСЯ ПОЛОСТИ ПРИ КАМУФЛЕТНОМ ВЗРЫВЕ // Научно-практические пути повышения экологической устойчивости и социально-экономического обеспечения сельскохозяйственного производства. – 2017. – С. 1150-1153.
55. Беккулов Б. Р., Собиров Х. А., Рахманкулов Т. Б. РАЗРАБОТКА И ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ МОБИЛЬНОГО УСТРОЙСТВА ДЛЯ СУШКИ ШАЛА // Энергоэффективные и ресурсосберегающие технологии и системы. – 2020. – С. 429-438.



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14564127>

## ЗАДАЧА О РАСПРОСТРАНЕНИИ СФЕРИЧЕСКОЙ ВОЛНЫ В УПРУГОПЛАСТИЧЕСКОЙ СРЕДЕ

к.т.н., доцент **К.Атабаев**

Андижанский машиностроительный институт

Рассматривается задача о распространения интенсивной сферической взрывной волны в грунте под действием приложенной к границе каверны с первоначальным радиусом  $r_0$  монотонно убывающей нагрузки  $\sigma_0(t)$  высокой интенсивности, которая возникает в ближней зоне взрыва вследствие газо- и термодинамических процессов. Грунт при уровне напряжений в несколько килобар моделируется либо «пластическим газом» [1], либо упругопластической средой с жесткой характеристикой разгрузки с учетом необратимых процессов и конечных деформаций. При изучении конечных упругопластических деформаций грунта, в отличие от [1-8], используется деформационная теория [9] с обобщенными определяющими функциями  $\sigma = \sigma(\varepsilon)$ ,  $\sigma_i = \sigma_i(\varepsilon, \varepsilon_i)$ , где  $\varepsilon$ ,  $\varepsilon_i$ ,  $\sigma$ ,  $\sigma_i$  – первые и вторые инварианты тензоров деформаций и напряжений. Причем необратимый процесс разгрузки среды по интенсивности напряжений  $\sigma_i$  согласно [10] принимается зависящим только от  $\varepsilon_i$  по линейному закону с модулем Юнга  $E_2$ . Кроме того рассмотрен случай, когда  $\sigma_i = \sigma_i(\sigma)$  [1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10].

Функция  $\sigma(\varepsilon)$  и  $\sigma_i(\varepsilon, \varepsilon_i)$ , в процессе нагружения среды представляются в виде [10]

$$(1) \quad \sigma(\varepsilon) = (\alpha_1 - \alpha_2\varepsilon)\varepsilon, \quad \sigma_i(\varepsilon, \varepsilon_i) = \sigma_i^H(\varepsilon_i) - \frac{(\sigma(\varepsilon)+25)}{15} [\sigma_i^\theta(\varepsilon_i) - \sigma_i^H(\varepsilon_i)] \quad \text{при } \varepsilon < 0,$$

$$(2) \quad \sigma(\varepsilon) = (\alpha_1 + \alpha_2\varepsilon)\varepsilon, \quad \sigma_i(\varepsilon, \varepsilon_i) = \sigma_i^H(\varepsilon_i) + \frac{(\sigma(\varepsilon)-25)}{15} [\sigma_i^\theta(\varepsilon_i) - \sigma_i^H(\varepsilon_i)] \quad \text{при } \varepsilon > 0,$$

$$(3) \quad \sigma_i^\theta(\varepsilon_i) = \left(\frac{\varepsilon_i-0,03}{0,02}\right) \cdot \left(\frac{\varepsilon_i-0,04}{0,03}\right) \cdot 20,04 - \left(\frac{\varepsilon_i-0,01}{0,02}\right) \cdot \left(\frac{\varepsilon_i-0,04}{0,01}\right) \cdot 27,18 + \\ + \left(\frac{\varepsilon_i - 0,01}{0,03}\right) \cdot \left(\frac{\varepsilon_i - 0,03}{0,01}\right) \cdot 28,54;$$

$$\sigma_i^H(\varepsilon_i) = \left(\frac{\varepsilon_i - 0,03}{0,02}\right) \cdot \left(\frac{\varepsilon_i - 0,04}{0,03}\right) \cdot 12,84 - \left(\frac{\varepsilon_i - 0,01}{0,02}\right) \cdot \left(\frac{\varepsilon_i - 0,04}{0,01}\right) \cdot 17,23 +$$

$$+ \left( \frac{\varepsilon_i - 0,01}{0,03} \right) \cdot \left( \frac{\varepsilon_i - 0,03}{0,01} \right) \cdot 18,84$$

при  $0,01 \leq \varepsilon \leq 0,03$ ;

$$(4) \quad \sigma_i^g(\varepsilon_i) = 27,69 + 170,2108(\varepsilon_i - 0,033),$$

$$\sigma_i^h(\varepsilon_i) = 17,7 + 170,2108(\varepsilon_i - 0,033) \quad \text{при } \varepsilon_i > 0,33;$$

где  $\alpha_1, \alpha_2$  – заданные положительные постоянные коэффициенты. Для решения задачи применяется аналитический подход, который отличается от используемых в работах [1, 9] методов и позволяет свести задачу к решению интегро-дифференциального уравнения относительно скорости фронта ударной волны  $\dot{R}(t)$ . Решение задачи построено для заданной произвольно убывающей нагрузки  $\sigma_0(t)$ . При этом радиус каверны  $r_0$  считается также заданной постоянной величиной, т.е. в процессе решения задачи в первом приближении расширением полости пренебрегается. На основе получаемых аналитических формул проводятся расчеты параметров среды на фронте ударной волны (УВ) на ЭВМ и сопоставления напряжений, массовой скорости пластической и упругопластической сред при малых и конечных деформациях, а также при  $\varepsilon^*(r) = \varepsilon_0^*$ . [11, 12, 13, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20]

1. В случае рассмотрения задачи в рамках модели «пластического газа» при выполнении первого уравнения (1) с учетом

$$\sigma(\varepsilon) = \sigma_{rr} = \sigma_{\theta\theta} = \sigma_{\phi\phi} = P, \quad \varepsilon = (1 - \rho_0/\rho) > 0$$

( $P$  – давление,  $\rho_0$  – начальная плотность среды) в грунте будет распространяться сферическая УВ  $r = R(t)$ , на фронте которой грунт мгновенно нагружается нелинейным образом, а за ним в области возмущения происходит необратимая жесткая разгрузка среды, и деформация  $\varepsilon$  зависит только от координаты  $r$  и не зависит от времени, т.е.  $\varepsilon = \varepsilon^*(r)$ . Тогда уравнения движения, неразрывности, состояния среды, соотношения на фронте  $r = R(t)$  и граничное условие (начальные условия нулевые) в переменных Лагранжа имеют вид [21, 22]:

$$(1.1) \quad \rho_0 \frac{\partial^2 u}{\partial t^2} = - \left( \frac{r+u}{r} \right)^2 \frac{\partial P}{\partial r}, \quad \frac{1}{3} \frac{\partial}{\partial r} (r+u)^3 = \frac{\rho_0}{\rho} r^2, \quad \varepsilon = 1 - \frac{\rho_0}{\rho} = \varepsilon^*(r) > 0,$$

$$(1.2) \quad \dot{u}^*(t) = \dot{R}(t) \cdot \varepsilon^*, \quad P^* = \rho_0 \cdot \dot{u}^*(t) \cdot \dot{R}(t), \quad P^* = \alpha_1 \varepsilon^* + \alpha_2 \varepsilon^{*2} \quad \left( \dot{R}(t) = \frac{dR}{dt} \right) \text{ при } r=R(t)$$

$$(1.3) \quad P(r, t) = \sigma_0(t) \text{ при } r = r_0, t \geq 0,$$

где  $u$  – перемещение,  $\rho$  – плотность,  $P$  – давление; параметры среды, относящиеся к фронту, обозначены сверху звездочкой.

В этом случае из (1.1) с учетом третьего уравнения (1.2) и выражений

*This article cites dangerous phenomena that occur on earth, their arrival output and the processes that enter them. At present, one of the global problems is the earthquake and there are many. The article provides information on the origin, types and cause-and-effect of earthquake-related concepts. The article cites extensive and accurate information about this topic.*

**Keywords:** *Geological, earthquake, seismic, shaking, dangerous, cause and effect, phenomenon.*

### KIRISH

Geologik xavfli hodisalar- bu hodisalar yer osti kuchlari va tashqi tabiiy omillar ta'siri orqali vujudga keladi. Bundan tashqari ular insonning, xo'jalik hayvonlari va o'simliklariga hamda iqtisodiy obyektlarga, atrofdagi tabiiy muhitga shikastlovchi ta'sir ko'rsatadi va ko'rsatib kelmoqda. Geologik xavfli hodisalar va jarayonlariga quyidagilar kiradi:

-zilzila;

-vulqon otilishi;

-tog' o'pirilishlari;

-yer ko'chkilari.

Zilzila-vaqt tanlamaydiga eng falokatli tabiiy ofat bo'lib, yerning ichki energiyasi o'zgarishi, vulqon otilishi jarayonlari va insonning xo'jalik faoliyati tufayli yuzaga keladigan xavfli hodisa.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Yer silkinishi yuzaga kelish sabablariga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'lina-di:  
-tektonik zilzilalar;

-vulqon zilzilalar;

-ag'darilish, o'pirilish zilzilalari;

-texnogen (insonning muhandisligi bilan bog'liq) zilzilalar.

Yer po'sti ichida silkinish ro'y bergan joy zilzila o'chog'i yoki giposentr deyiladi, uning ustiga eng ko'p zarba bo'ladigan joy esa episentr deyiladi. Epitsentr va gipotsentr oralig'idagi masofa zilzilaning yer yuzidan qancha km chuqurligini ko'rsatadi. Zilzila o'chog'i yani giposentr O'rta Osiyo hududida, ayrim hollarda, Yer sathidan 5-50 km chuqurlikda joylashgan bo'ladi. Yer sharining ma'lum hududlarida zilzilalar o'chog'i yani 200-300, hatto 700 km gacha chuqurlikda bo'lishi manbalarda keltirib o'tilgan. Zilzila sodir bo'lganda bo'ylama va ko'ndalan seysmik to'lqinlar tarqaladi. Bo'ylama to'lqinlar (R) harfi bilan, ko'ndalang to'lqinlar esa (S) harfi bilan belgilanadi. Zilzilalar yer yuzasida sodir bo'lganda ballarda o'lchaniladi va maksimal 12 ballgacha etib tanlangan. Masalan;

1 ball — sezilarsiz, faqatgina seysmik asboblar qayd qiladi;

2 ball — juda kuchsiz, uy ichida utirgan ba'zi odamlar sezishi mumkin (deraza oynalari titraydi);

3 ball — kuchsiz, kupchilik odamlar sezmaydi, ochiq joyda tinch o'tirgan odam sezishi mumkin. Osilgan jismlar asta-sekin tebranadi;

4 ball — o'rtacha sezilarli. Ochiq joyda, bino ichida turgan odamlar sezadi. Uy devorlari qirsillaydi. Ro'zg'or anjomlari titraydi, osilgan jismlar tebranadi;

5 ball — ancha kuchli. Hamma sezadi, uyqudagi odam uyg'onadi, ba'zi odamlar hovliga yugurib chiqadi. Idishlardagi suyuqlik chayqalib to'kiladi, osilgan uy jihozlari qattiq tebranadi;

6 ball - kuchli. Hamma sezadi, uyqudagi odam uyg'onadi, ko'pchilik odamlar hovliga yugurib chiqadi. Uy hayvonlari betoqat bo'ladi. Ba'zi hollarda kitob javonidagi kitoblar, ro'zg'or buyumlari javonlaridagi idishlar ag'darilib tushadi;

7 ball - juda kuchli. Ko'pchilik odamlarni qo'rquv bosadi, ko'chaga yugurib chiqadi, avtomobil haydovchilari harakat vaqtida ham sezadi, uy devorlarida katta-katta yoriqlar paydo bo'ladi, Hovuzlardagi suv chayqaladi va loyqalanadi.

8 ball - yemiruvchi. Xom g'ishtdan qurilgan imoratlar butunlay vayronaga aylanadi, ancha pishiqlik qilib qurilgan imoratlarda ham yoriqlar paydo bo'ladi, uy tepasidagi

moʻrilar yiqiladi, baʼzi daraxtlar butun tanasi bilan yiqiladi, sinadi, togʻliq joylarda qulash, surilish hodisalari yuz beradi.

9 ball - vayron qiluvchi. Yer qimirlashiga bardosh beradigan qilib qurilgan imorat va inshootlar ham qattiq shikastlanadi. Oddiy imoratlar butunlay vayron boʻladi, yer yuzasida yoriqlar paydo boʻladi, yer osti suvlari sizib chiqishi mumkin.

10 ball - yakson qiluvchi. Hamma imoratlar yakson boʻladi. Temiryoʻl izlari toʻlqinsimon shaklga kelib bir tomonga qarab egilib qoladi, yer osti kommunal quvurlari uzilib ketadi, choʻkish hodisalari yuz beradi. Suv havzalari toʻlqinlanib qirgʻoqqa uriladi, qoyali yon bagʻrlarda katta-katta surilish hodisalari sodir boʻladi.

11 ball - fojiali. Hamma imoratlar deyarlik vayron boʻladi, toʻgʻonlar yorilib ketadi, temir yoʻllar butunlay ishdan chiqadi, yerning ustki qismida katta-katta yoriqlar paydo boʻladi, yer ostidan balchiqlar koʻtarilib chiqadi, surilish, qulash hodisalari nihoyasiga yetadi.

12 ball - oʻta fojiali. Yerning ustki qismida katta oʻzgarishlar yuz beradi. Hamma imoratlar butunlay vayron boʻladi, daryolarning oʻzani oʻzgarib sharsharalar paydo boʻladi, tabiiy toʻgʻonlar vujudga keladi.

## NATIJALAR

Oʻzbekiston hududi va yon atrofdagi hududlarda boʻlib oʻtgan bir necha kuchli zilzilalarni aytib oʻtsak boʻladi. Masalan, 1976-yil 17-maydagi Gazli, 1978-yil 1-noyabrdagi Olay, 1984-yil 18-fevraldagi Pop zilzilalarini misol tariqasida aytsak boʻladi, shuningdek bu zilzilalar oldindan aytilgan. Yer yuzida roʻy bergan kuchli zilzilalar jumlasiga Lissabon (1755), Kaliforniya (1906), Ashxobod (1948), Chili (1960), Tokio (1923), Xitoy (1976), Spitak (Armaniston, 1988), Zaysan (Qozogʻiston, 1990), Suusamir (Qirgʻiziston, 1922) lar va Oʻzbekiston hududida esa 838-839-yillarda Fargʻonada, 942-yilda Buxoroda, 1208-1209-yillarda Urganchda, 1490-yilda Samarqandda, 1494-yilda Namanganda, 1620-yilda Axsikentda, 1902-yilda Andijonda, 1921 — 1922-yillarda Buxoro va Samarqand yaqinida, 1927-yilda Namanganda, 1868, 1924, 1938, 1966-yillarda Toshkentda, 1976, 1984-yillarda Gazlida boʻlgan zilzilalarni aytib oʻtish joiz hisoblanadi.

1-jadval.

Rixter boʻyicha (magnituda)	Dunyo boʻyicha 1 yilda yer silkinishning oʻrtacha soni	Yerning silkinish muddati, soniya	Kuchli yer silkinishning taʼsir etgan radiusi, km
8.0-8.9	1	30-90	80-160
7.0-7.9	15	20-50	50-120
6.0-6.9	140	10-30	20-80
5.0-5.9	900	2-15	5-30
4.0-4.9	8000	0-5	0-15

1-jadval. Yer silkinishining baʼzi koʻrsatkichlari.

Zilzila jarayonida minglab odamlarning o'limi hamda moddiy yo'qotishlar yuzaga keladi. Masalan, manbalarda keltirib o'tilgan 1990-yilda Erondagi 8 balli yer qimirlashi oqibatida 50 ming odam vafot etgani, 1 mln.ga yaqin odamlar esa, qon yo'qotib, jarohatlanganlari haqida ma'lumotlar mavjud. Xuddi shunday holat 1988-yil 7-dekabrda Armanistondagi zilzila oqibatida vujudga kelgani haqida ma'lum. U yerda juda katta kuch bilan ya'ni 10,5 ball yer silkinishining oqibatida 25 ming odam vafot etgan. Bunda 8 mln. kv.m uy joy yo'q bo'lib ketganligi, 514 ming kishi boshpanasiz qolganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Yer ostida qolganlardan 15250 kishi qutqarilgan. Yer silkinish 4 ta katta shaharlarni, Leninakan, Kirovokan, Spitak va Stepanavan hamda 58 ta yashash punktlarini o'z ichiga olgan. Shulardan 1500 ta qishloq vayron bo'lgan, 12 ta shahar shikastlangan, ulardan 3 tasi batamom yo'q bo'lib ketgan. Bulardan tashqari, sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalari deyarli izdan chiqqan, avtomobil va temiryo'llarning ko'p qismi yaroqsiz holatga kelgan, hamda aloqa, ko'priklar hamizdan chiqqan.

## MUHOKAMA

1966-yil 26-aprel soat 5 dan 22 minut 52 sekund o'tganda Toshkentda qattiq yer qimirlash oqibatida zilzila yuz bergandi. Zilziladan avval kuchli portlashdagi kabi tovush eshitilgan, keyin shahar chekkasida shafaq ko'ringan. Ilmiy tekshirishlar natijalariga ko'ra, shafaqning kelib chiqishiga sabab, yer ostida yig'ilgan tektonik kuchlanishning yer yuzasiga chiqishi vaqtida elektr energiyasiga aylanishidan kelib chiqqan. Zilzila o'chog'i 5-10 km chuqurlikda joylashgan. Zilzila energiyasi 1014 joulga yaqin, epitsentrdan uning kuchi 8 ballga yetgan deb keltirilgan manbalarda. Zilzila markazi (Qashqar mahallasi va Labzak o'rnida) vertikal zarblar kuchining magnitudasi 5,3 ga, silkinish 8 balldan ziyod, maksimal vayronalik zonasi 10-12 km<sup>2</sup> ga teng bo'lgan. Zilzila o'chog'i yani giposentr cho'ziqroq shaklda bo'lib, shimoli-g'arbdan janubi-sharqqa yo'nalgan. Zilzila natijasida atrofga seysmik to'lqinlarning so'nib borishi natijasida 8, 7, 6 balli maydonlar ajratilgan. Yerning 2-3 Gs chastotada tebranishi 10-12 daqiqa davom etgan. 9-maydan 10-mayga o'tar kechasi, 24-may va 5-iyunda kuchli (6-7 ball) silkinishlar takrorlangan. Zilzila natijasida 2 mln. m<sup>2</sup> dan ziyod turar joylar, 236 ma'muriy binolar, 700 ga yaqin savdo va umumiy ovqatlanish shoxobchalari, 26 kommunal xo'jalik korxonalari, 180 ga yaqin o'quv yurtlari, 8 ming o'rinli maktablar, 36 madaniy-maishiy muassasa, 185 tibbiyot va 245 sanoat korxonasi binolari zarar ko'rdi, hamda 78 ming oila va 300 ming fuqaro boshpanasiz qolgan, 8 kishi qurbonlar ham mavjud bo'lgan va asosiy manbalarda keltirib o'tilgan. Asosiy tebranish 1966-68-yillar mobaynida bir qancha aftershoklar bilan davom etgan.



1-rasm. Toshkent zilzilasi.

Markaziy seysmik stansiya birinchi kuchli zarbadan soʻng silkinishlarning 2500 dan ortiq takrorlanganini qayd qilingan. Yangi xaritada koʻrsatilishicha Oʻzbekistonda boʻlishi mumkin boʻlgan yer silkinishlari belgilangan. Jumladan, Qoraqalpogʻiston Respublikasida-6 ballgacha; Xorazm va Samarqand viloyatlarida - 7 ballgacha; Toshkent, Qarshi, Buxoro, Termez, Namangan, Fargʻona shaharlarida - 8 ballgacha; Andijon viloyatida - 9 ballgacha deb yangi xaritada belgilangan. Shuningdek, seysmoaktiv xaritada Toshkent shahri uchun ham 6-9 ballgacha boʻladigan mikroseysmoaktiv hududlar ham belgilab qoʻyilgan va hozirgi kunda mana shu maʼlumotlar asosida Toshkent shahrida maqsadli qurilishlar amalga oshirilin kelinmoqda.

### **XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytish joizki, zilzila jarayonida tektonik plitalarning harakati va vulqon otilishlarini keltirib chiqaradi. Zilzilaning oldinini olishni iloji boʻlmasada, zilzilaning zararlarini kamaytirish uchun yangi texnologik choralarni koʻrib chiqish lozim. Zilzila sodir boʻlishida vayronagarchilikni kamaytirish maqsadida koʻplab tadbirlar oʻtkazilishi hamda qurilish jarayonlarini va qurilish materiallarni qattiq nazorat qilib borilishi lozim. Bundan tashqari zilzila xavfi yuqori hududlarda monitoring tizimini tashkil etilishi hamda oldindan prognoz qilishga harakat qilish kerak. Eng asosiysi zilzila sodir boʻlganda aholi qanday oʻzini tutishi, xavfsizlik choralardan qanday foydalanishi va kerakli zahira mahsulotlarini tayyorlab turishi haqida aholiga maʼlumotlar yetkazilishi darkor.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullabekov K. N., Zilziladan saqlanish mumkinmi? T., 1992; Karimov F. X., Zemletryaseniye, M, 1993; Otaboyev X., Zilzila T., 1988.
2. Nigmatov I., Tojiev M.X. — „Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi“ Darslik.-T.: Iqtisod-moliya. 2011. –260 b.
3. Qudratov A. va b. — „Hayotiy faoliyat xavfsizligi“.Ma’ruza kursi. „Aloqachi“ -T.: 2005. –355 b.
4. Yormatov G‘.Y. va boshqalar. Hayot faoliyati xavfsizligi. -T.: „Aloqachi“, 2009 yil. — 348 b.
5. Umarov G‘. - „HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI“ fanidan MAJMUA, Samarqand.
6. Окамото Ш. Сейсмостойкост инженерных сооружений: Пер. с англ. М.:Стройиздат, 1980. –342 с.
7. Salikhanov, S., Pulatova, Z., Zakirov, F., Rahimjonov, Z., & Abdullayev, A. (2021). Determination of deformations and self-stress in concrete on stress cement. In E3S Web of Conferences (Vol. 264). EDP Sciences.
8. Нишонов Н.А., Солиев Д.И., Куйчиев О.А. Особенности повреждения искусственных сооружений при землетрясениях // SCIENTIFIC PROGRESS O‘zbekiston. - 2021



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14564217>

## ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ПРЕПОДАВАНИЮ БИОЛОГИИ: УГЛУБЛЕННЫЙ АНАЛИЗ ПОТЕНЦИАЛА ТЕХНОЛОГИЙ ОБУЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ КЕМБРИДЖСКОЙ СИСТЕМЫ

Профессор, Аманов Бахтияр Хушбакович

Алламуратова Шахзода Султонмахмуд кизи

Магистр 2 курса факультет естественных наук  
методика преподавания точных и естественных наук (биология)  
Чирчикского Государственного Педагогического Университета

### АННОТАЦИЯ

*Статья посвящена анализу современных подходов к преподаванию биологии в контексте их адаптации к требованиям Кембриджской образовательной системы. Рассмотрены ключевые аспекты, такие как развитие критического мышления, интеграция STEAM-образования, проектных методик и цифровых технологий. Представлены результаты исследования по потенциалу внедрения данных технологий в школах Узбекистана, включая барьеры и перспективы. Работа включает предложения по разработке учебно-методических материалов, повышению квалификации учителей и созданию инфраструктуры для устойчивого внедрения инноваций.*

**Ключевые слова:** Кембриджская образовательная система, преподавание биологии, STEAM-образование, проектное обучение, цифровые технологии, критическое мышление, инфраструктура, повышение квалификации учителей.

### ANNOTATSIYA

*Maqola biologiyani o'qitishda zamonaviy yondashuvlarni, jumladan, Kembrij ta'lim tizimi talablari asosida moslashtirilgan texnologiyalarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, STEAM ta'limi, loyihaviy metodikalar va raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish kabi asosiy jihatlar ko'rib chiqildi. O'zbekiston maktablarida ushbu texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari, to'siqlar va istiqbollari bo'yicha tadqiqot natijalari taqdim etilgan. Innovatsiyalarni barqaror joriy etish uchun o'quv-uslubiy materiallar ishlab chiqish, o'qituvchilar malakasini oshirish va infratuzilmani yaratish bo'yicha takliflar kiritilgan.*

**Kalit so'zlar:** Kembrij ta'lim tizimi, biologiyani o'qitish, STEAM ta'limi, loyihaviy o'qitish, raqamli texnologiyalar, tanqidiy fikrlash, infratuzilma, o'qituvchilar malakasini oshirish.

## **ABSTRACT**

*The article is devoted to the analysis of modern approaches to teaching biology in the context of their adaptation to the requirements of the Cambridge educational system. Key aspects such as the development of critical thinking, the integration of STEAM education, project-based methodologies, and digital technologies are examined. The study presents findings on the potential for implementing these technologies in Uzbek schools, including barriers and opportunities. Proposals for the development of teaching materials, teacher training, and infrastructure creation for sustainable innovation implementation are included.*

**Keywords:** *Cambridge educational system, biology teaching, STEAM education, project-based learning, digital technologies, critical thinking, infrastructure, teacher professional development.*

**Введение** Современная образовательная парадигма требует не только передачи знаний, но и формирования у учеников компетенций, необходимых для успешной жизни в условиях быстро меняющегося мира. Кембриджская образовательная система акцентирует внимание на таких аспектах, как критическое мышление, аналитические способности и междисциплинарный подход, что делает её привлекательной для внедрения в различных странах, включая Узбекистан [1]. Однако, чтобы адаптировать данную систему, необходимо учитывать культурные и институциональные особенности локального контекста [2].

**Методы исследования** Для достижения целей исследования были использованы следующие методы:

1. **Анализ научной литературы:** исследованы работы, посвященные Кембриджской системе, STEAM-образованию и цифровым технологиям в обучении [3;4; 5].
2. **Социологическое анкетирование:** проведен опрос среди 120 учителей биологии, работающих в городских и сельских школах Узбекистана [6].
3. **Экспериментальное обучение:** разработаны и протестированы уроки биологии с использованием проектных и STEAM-методов [7].

**Результаты исследования**

Таблица №1

Методика обучения	Эффективность (%)	Уровень внедрения в школах Узбекистана	Основные барьеры внедрения
Проектное обучение	85%	Частичное	Недостаток подготовки учителей
STEAM-образование	78%	Ограниченное	Нехватка ресурсов и материалов
Цифровые технологии	90%	Частичное	Ограниченный доступ к интернету

**Обсуждение** Результаты исследования показали, что внедрение инновационных технологий на основе Кембриджской системы значительно улучшает качество обучения. Тем не менее, необходимо преодолеть ряд препятствий: [6]

1. **Дефицит методических материалов:** Учебные программы и материалы должны быть адаптированы к локальным потребностям [8].
2. **Подготовка учителей:** Учителя нуждаются в регулярных тренингах по использованию современных технологий и методик [9].
3. **Инфраструктура:** Внедрение технологий невозможно без надлежащей цифровой инфраструктуры, включая доступ к интернету и оборудованию [10].

**Заключение** Таким образом, интеграция Кембриджской образовательной системы в учебный процесс Узбекистана является перспективным направлением, требующим комплексного подхода. На основе проведенного исследования предложены рекомендации по улучшению учебного процесса:

- Разработка национальных стандартов и учебных материалов, соответствующих требованиям Кембриджской системы.
- Организация регулярного повышения квалификации учителей.
- Создание условий для равного доступа к цифровым технологиям.

### Список литературы

1. Cambridge Assessment International Education. "21st Century Skills in Education."
2. Иванов П.П. "Современные технологии обучения."
3. Петрова Н.Н. "Инновации в образовании: от теории к практике."
4. Smith J., Johnson L. "Digital Technologies in Education."
5. Анкетирование учителей биологии в школах Узбекистана, 2024 г.
6. Семинар на тему "STEAM-образование в естественных науках" (Узбекистан, 2024).
7. Cambridge University Press. "Educational Frameworks for Developing Countries."
8. Семинар "Локализация Кембриджских образовательных стандартов" (Узбекистан, 2024).
9. Программа повышения квалификации учителей, Министерство образования Узбекистана, 2024 г.
10. Johnson L., Adams S. "Digital Infrastructure in Schools."

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14564219>

## SEZAR SHIFRLASH ALGORITMI ORQALI SHIFRLANGAN MA'LUMOTNI REGRESSION TAHLIL YORDAMIDA YECHISH HAMDA NATIJALARNING XATOLIGINI BAHOLASH

**Xushvaqto'v Jaloliddin Gulmurod o'g'li**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Amaliy matematika  
yo'nalishi 1-kurs magistranti  
[jaloliddin0611@gmail.com](mailto:jaloliddin0611@gmail.com)

**Abdusattorov Abbos Shavkat o'g'li**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU akademik litseyi 1-bosqich o'quvchisi  
[abbosbekabdusattorov8@gmail.com](mailto:abbosbekabdusattorov8@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Sezar shifrlash algoritmi yordamida kodlangan axborotni chiziqli regressiya tahlili yordamida yechish usullari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot davomida Sezar shifrlash algoritmining asosiy tamoyillari tushuntirilgan va ushbu shifrlash tizimini yechish uchun regressiya yondashuvi qo'llanilgan. Natijalar bo'yicha Sezar shifrlash algoritmini regressiya yondashuvi yordamida muvaffaqiyatli yechish mumkinligi ko'rsatilgan. Shu bilan birga, natijalarning xatoliklari statistik usullar yordamida tahlil qilingan va yechimning ishonchlilik darajasi baholangan. Mazkur maqola kriptografik muammolarni matematik usullar bilan hal qilish bo'yicha amaliy yondashuvni taqdim etadi.*

***Kalit so'zlar:** sezar, axborot, kodlash, dekodlash, chiziqli regressiya, xatolik, o'rtacha absolyut xatolik, o'rtacha kvadratik xatolik.*

## DECRYPTING DATA ENCRYPTED USING CAESAR CIPHER ALGORITHM THROUGH REGRESSION ANALYSIS AND EVALUATING THE ACCURACY OF THE RESULTS

### ABSTRACT

*This article explores methods for decrypting information encoded using the Caesar cipher algorithm through linear regression analysis. The study explains the fundamental principles of the Caesar cipher and applies a regression approach to decipher this encryption system. The results demonstrate that the Caesar cipher can be successfully decrypted using the regression approach. Additionally, the errors in the results were analyzed using statistical methods, and the reliability of the solution was evaluated. This article provides a practical approach to solving cryptographic problems using mathematical methods.*

***Keywords:** Caesar, information, encryption, decryption, linear regression, error, mean absolute error, mean squared error.*

## KIRISH

Sezar shifrlash algoritmi, eng qadimgi va oddiy shifrlash metodlaridan biridir. Bu algoritm matndagi har bir harfni ma'lum bir soni bilan o'zgartirishga asoslanadi. Shifrlash jarayonida har bir harfning o'ri yana bir belgilangan butun son (kalit)ga nisbatan siljiydi. Yuliy Sezar bevosita  $k=3$  bo'lganda ushbu usuldan foydalangan. Ushbu maqolada, Sezar shifrlash algoritmiga chiziqli regressiya yordamida yondashish va xatolikni baholash usullari ko'rib chiqiladi.

## ASOSIY QISM

Sezar shifrlash algoritmi, o'z nomini Rim imperatori Juliy Sezardan olgan. U asosan matnlarni shifrlash uchun ishlatiladi. Shifrlash jarayonida har bir harfni  $k$  qiymatiga nisbatan o'zgartirish amalga oshiriladi. Misol uchun, agar  $k = 3$  bo'lsa, 'A' harfi 'D'ga, 'B' harfi esa 'E'ga aylanishi kerak.

Formulasi quyidagicha:

$$E(x) = (x + k) \bmod 26$$

Bu yerda:

- $E(x)$  - shifrlangan harf,
- $x$  - boshlang'ich harfning o'ri ( $A=0, B=1, \dots, Z=25$ ),
- $k$  - kalit (shifrlashning siljish miqdori),
- 26 - alifbo uzunligi (harflar soni).

Chiziqli regressiya, asosan ikki yoki ko'proq o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlikni modellashtirish uchun ishlatiladi. Sezar shifrlash algoritmiga nisbatan chiziqli regressiyani qo'llash, harflar o'rtasidagi siljish miqdorini topish va shu orqali original matnni tiklashni o'z ichiga oladi.

Regressiya modeli oddiy chiziqli tenglama shaklida bo'ladi:

$$y = mx + b$$

Bu yerda:

- $y$  - shifrlangan harfning o'ri,
- $x$  - asl harfning o'ri,
- $m$  - chiziqning egri (gradienti),
- $b$  -  $y=0$  nuqtasidagi kesishish nuqtasi.

Chiziqli regressiya yordamida, asl harf va shifrlangan harflar orasidagi o'zgarishni o'rganib, shifrlash kalitini taxmin qilish mumkin.

Bizdagi yakuniy natijalarning xatoliklarini baholash uchun bir nechta usullar mavjud. Eng keng tarqalgan baholash metodlari quyidagilar:

1. O'rtacha kvadratik xatolik:

Xatolikni baholashda eng oddiy usullardan biri bu o'rtacha kvadrat xatolik hisoblashdir. Bu quyidagicha hisoblanadi:

$$\bar{y} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n (y_i - \hat{y}_i)^2$$

Bu yerda  $y_i$  - haqiqiy qiymat,  $\hat{y}_i$  - taxminiy qiymat, va  $n$  - namunalar soni.

2. O'rtacha kvadratik chetlanish:

O'rtacha kvadratik chetlanish esa o'rtacha kvadratik xatolikning kvadrat ildizini olish orqali olingan xatolik miqdorini o'lchaydi:

$$\sigma = \sqrt{\bar{y}}$$

3. O'rtacha absolyut xatolik:

O'rtacha absolyut xatolik har bir xatolikning mutlaq qiymatini o'lchaydi:


$$a = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n |y_i - \hat{y}_i|^2$$

Chiziqli regressiya yordamida Sezar shifrlashini yechish jarayoni quyidagicha bo'ladi:

1. Asl matn va shifrlangan matnni yig'ish.
2. Asl harflar va shifrlangan harflar o'rtasidagi farqni topish (bu farq  $k$  ni beradi).
3. Chiziqli regressiya yordamida bu farqni aniqlash.
4. Xatolikni baholash va regressiya modelining samaradorligini o'lchash.

Dastur yordamida shifrlash va xatolikni aniqlash

### Natijalar va muhokamalar:



C# dasturlash tilida k kalitni bilmasdan turib, berilgan namunaviy matn va namunaviy shifrmtn uchun chiziqli regressiya yordamida chiziqli funksiya yaratib olamiz.

Misol sifatida: hello soʻzini olamiz. Unga mos shifrmtn sifatida khoot soʻzi berilgan. Bu holatda biz aniq funksiyani bilmaymiz. Hello soʻzidagi bir harfning alfavitda turgan oʻrni  $x_i$  deb, khoot soʻzini esa  $y_i$  deb olamiz.

H	E	L	L	o
7	4	11	11	14

$$\bar{x} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n x_i = \frac{7+4+11+11+14}{5} = \frac{47}{5} = 9.4$$

K	h	O	o	t
10	7	14	14	19

$$\bar{y} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n y_i = \frac{10+7+14+14+19}{5} = \frac{64}{5} = 12.8$$

$$m = \frac{\sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})(y_i - \bar{y})}{\sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})^2}$$



$$m = \frac{(7-9.4)(10-12.8) + (4-9.4)(7-12.8) + (11-9.4)(14-12.8) + (11-9.4)(14-12.8) + (14-9.4)(19-12.8)}{(7-9.4)^2 + (4-9.4)^2 + (11-9.4)^2 + (11-9.4)^2 + (14-9.4)^2}$$

$$= \frac{70.4}{61.2} \approx 1.15$$

$$b = \bar{y} - m \cdot \bar{x}$$

$$b = 12.8 - 1.15 \cdot 9.4 = 1.99$$

Topilgan m va b yordamida taqribiy hisoblash  $y_i = m \cdot x_i + b$  funksiya quriladi.

$i = 0$	$i = 1$	$i = 2$	$i = 3$	$i = 4$
$x_i = 7$	$x_i = 4$	$x_i = 11$	$x_i = 11$	$x_i = 14$
$y_i = 10.04$	$y_i = 6.59$	$y_i = 14.64$	$y_i = 14.64$	$y_i = 18.09$
$y_i = 10$	$y_i = 7$	$y_i = 14$	$y_i = 14$	$y_i = 19$
$ \Delta y  = 0.04$	$ \Delta y  = 0.41$	$ \Delta y  = 0.64$	$ \Delta y  = 0.64$	$ \Delta y  = 0.91$

MSE ni hisoblash uchun esa

$$\bar{y} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n (y_i - y_i)^2$$

Formulasidan foydalanamiz.

$$\bar{y} = \frac{0.04^2 + 0.41^2 + 0.64^2 + 0.64^2 + 0.91^2}{5} = \frac{1.817}{5} = 0.3634$$

Ko‘rinib turibdiki, o‘rtacha absolyut xatolik taqriban 0.36 ga teng

W	o	r	L	d
22	14	17	11	3

Bizga berilgan  $x_i$  lar orqali  $y_i$  larni hisoblaymiz:

$$y_i = 1.15x_i + 1.99$$

$$y_0 = 1.15 \cdot 22 + 1.99 = 27.29$$

$$y_0 = y_0 \text{ mod } 26 = 1.29$$

Bu holatda biz buni 1 deb olishga haqlimiz.


$$y_1 = 1.15 \cdot 14 + 1.99 = 18.09$$

$$y_2 = 1.15 \cdot 17 + 1.99 = 21.54$$

$$y_3 = 1.15 \cdot 11 + 1.99 = 14.64$$


$$y_4 = 1.15 \cdot 3 + 1.99 = 5.44$$

Har bir  $y_i$  ni butun qismini olsak: [1,18,21,14,5] sonlari hosil bo'ladi. Bularni alfavitdagi harflar bilan almashtirsak, bsvof shifrmtn hosil bo'ladi. Asl holatdagi shifrmtn esa: zruog so'zi edi.



Agar namunadagi shifrmtn kloor ko'rinishida berilsa, bu holatda  $y_i = x_i + 3$  funksiya hosil bo'ladi va bundan, har bir element o'zidan keyingi 3-elementga o'zgartiriladi. world so'zi zruog so'ziga o'zgartiriladi.

Sezar shifri alfavit surishdan hosil bo'ladigan shifrlash algoritmi. Xo'p, unda alfavit oxiridagi so'zlar alfavit boshidagi bilan almashishi qanday o'tkaziladi? Ya'ni, so'z "zero" bo'lsa va  $k=1$  ga teng bo'lsa, bu holatda "afsp" so'zi hosil bo'lishi ma'lum deb olsak, buni qanday ko'rinishda chiziqli ko'rinishda ifodalaymiz?  $z=25$  indeksga ega,  $a=0$  ga teng. Bu holatda, biz to'g'ri chiziqqa mos bo'ladigan qiymatlar bilan ishlashimiz kerak. Agar shifrmtn indeksi 12 dan katta yoki teng bo'lganda va oddiy so'zning indeksi 12 dan kichik yoki teng bo'lganda, oddiy matnni indeksini 26 ga oshiramiz. Shunda  $z=25$  da  $a=26$  sonini qabul qiladi va funksiyaning o'suvchanlik sharti buzilmaydi.



## XULOSA

Sezar shifrlash algoritmi oddiy bo'lsa-da, uning yechimi chiziqli regressiya yordamida qiyin bo'lishi mumkin, chunki shifrlash jarayonida kalitning aniq qiymatini bilish zarur. Lekin chiziqli regressiya orqali, alohida matnlar bo'yicha harflar o'rtasidagi siljishlar o'rganilib, Sezar shifrlashining yechimi taxmin qilinishi mumkin. Yangi metodlar yordamida xatolikni baholash va model samaradorligini o'lchash, bu yondashuvni yanada takomillashtirishi mumkin.

Maqolada Sezar shifrlash algoritmiga asoslangan yechimlar va chiziqli regressiyaning qo'llanilishi haqida umumiy tasavvur berilgan. Bu usul shifrlashni tahlil qilishda foydalidir, lekin murakkab shifrlash algoritmlarini tahlil qilishda boshqa metodlar ham qo'llanishi mumkin.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Stinson, D. R. “Cryptography: Theory and Practice”. CRC Press, 2005.
2. Montgomery, D. C., Peck, E. A., & Vining, G. G. “Introduction to Linear Regression Analysis”. Wiley, 2021.
3. M.M.Aripov, B.F.Abdurahimov, A.S.Matyakubov. “KRIPTOGRAFIK USULLAR” Toshkent 2020
4. Xudoyqulov Z.T., Tojiakbarova U.U., Boltayev F.H., Dasturiy ko‘rinishda amalga oshirishga qulay oqimli shifrlash algoritmi, «Axborotkommunikatsiya: Tarmoqlar, Texnologiyalar, Yechimlar» Har chorak ilmiy-texnik jurnal. №1(57)/ 2021 y. –C.35-43.
5. Stallings, W. “Cryptography and Network Security: Principles and Practice”. Pearson, 2020.
6. Draper, N. R., & Smith, H. “Applied Regression Analysis”. Wiley, 1998.
7. Singh, S. “The Code Book: The Science of Secrecy from Ancient Egypt to Quantum Cryptography”. Anchor Books, 2000.
8. Rivest, R. L., Shamir, A., & Adleman, L. “A Method for Obtaining Digital Signatures and Public-Key Cryptosystems”. Communications of the ACM, 1978.
9. Ferguson, N., Schneier, B., & Kohno, T. “Cryptography Engineering: Design Principles and Practical Applications”. Wiley, 2010.
10. Introduction to Regression Analysis. Towards Data Science. <https://towardsdatascience.com>
11. Applied Cryptography Techniques. Geeks for Geeks. <https://www.geeksforgeeks.org>
12. Al-Kaabi, L., & Al-Mawali, S. “Analyzing Classical Ciphers Using Statistical Methods”. International Journal of Computer Science and Network Security, 2019.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14564223>

## QASHQADARYO VILOYATI YAYLOV YERLARIDA GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR MONITORINGI

**Bobonazarov Toshmuhammad Yuldashevich**

“O‘zdavyerloyiha” DILI “Qashvilyerloyiha” bo‘linmasi I-toifali muhandis  
mutaxassisi

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyati yaylov yerlarida gidrotexnika inshootlar monitoringi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.*

*Kalit so‘zlar.* Yaylov yerlari, gidrotexnika inshootlar, sug‘orish tizimi, irrigatsiya va melioratsiya.

## MONITORING OF HYDROTECHNICAL CONSTRUCTIONS IN PASTURE LANDS OF KASHKADARYA REGION

### ABSTRACT

*This article provides information on the monitoring of hydrotechnical facilities in the pasture lands of Kashkadarya region.*

*Keywords:* Pasture lands, hydrotechnical structures, irrigation system, irrigation and land reclamation.

**KIRISH.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, respublikamizda yaylovlar va ulardagi yer osti suvlarini muhofaza qilish hamda yaylov degradatsiyasi jarayonlarining oldini olish maqsadida qator vazifalari belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo‘mitasi, Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi, Yaylov xo‘jaligini rivojlantirish uyushmasi, O‘rmon xo‘jaligi agentligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda har yili budjetdan ajratiladigan mablag‘lar hisobidan o‘tkaziladigan geobotanik tadqiqotlar natijalariga asosan yaylovlarda chorva mollarini o‘tlatishning eng ko‘p yo‘l

qo'yiladigan foydalanish normalarini belgilash hamda 2024-yildan boshlab yaylovlardan almashlab foydalanishni tashkil etish vazifalari belgilab berildi. Bundan tashqari yaylovlarda resurs tejaydigan texnologiyalarni keng qo'llash, yaylov mavsumini inobatga olgan holda chorva mollarini almashlab o'tlatish tizimini to'liq joriy etish va cho'l yaylovlari egallagan maydonlarda mavjud tik quduqlarni xatlovdan o'tkazish va uning natijalariga ko'ra yaroqsiz holga kelgan (berkitilgan, foydalanilmayotgan) tik quduqlarni mukammal ta'mirlash bo'yicha chora-tadbirlar haqida aytib o'tildi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Vazirlar Mahkamasining 23.02.2021 yildagi «2021 yilda Qashqadaryo viloyatida irrigatsiya va melioratsiya ishlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 94-son qarori qabul qilindi. Bundan ko'zlangan maqsad Qashqadaryo viloyatida O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti mablag'lari hisobidan irrigatsiya va melioratsiya ob'yektlarini qurish, rekonstruksiya qilish hamda melioratsiya ob'yektlarini ta'mirlash-tiklash bo'yicha ustuvor loyihalar ishlab chiqildi.

Qashqadaryo viloyatida mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan irrigatsiya tizimlarini ta'mirlash-tiklash va irrigatsiya-melioratsiya ishlarini takomillashtirish bo'yicha vazifalar belgilab berildi.

Unga ko'ra quyidagi maqsadli ko'rsatkichlarga erishish nazarda tutilgan:

❖ suv ta'minoti darajasi past bo'lgan sug'oriladigan maydonlarni 83,5 ming gektardan 55,3 ming gektargacha kamaytirish;

❖ nasos stansiyalaridagi 3 ta nasos agregati va 14 ta elektr dvigatelini zamonaviy energiya tejamkorlariga almashtirish, nasos stansiyalarining yillik elektr energiyasi iste'molini 2,4 mlrd kVt.s dan 2,3 mlrd kVt.c gacha kamaytirish;

❖ suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari joriy qilingan maydonlarni 69,7 ming gektardan 130,1 ming gektargacha, shu jumladan tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy qilingan maydonlarni 11,8 ming gektardan 39,4 ming gektargacha yetkazish;

❖ sho'rlangan maydonlarni 232,3 ming gektardan 227,8 ming gektargacha, shu jumladan, o'rtacha va kuchli darajada sho'rlangan yerlarni 47,7 ming gektardan 45,6 ming gektargacha qisqartirish;

❖ «Smart Water» raqamli texnologiyasi asosida suvning hisobi yuritiladigan suv xo'jaligi ob'yektlari sonini 73 tadan 342 tagacha yetkazish;

Qashqadaryoning katta maydonlari lalmi yerlardan iborat bo'lib, o'simlik qoplami efemerefemeroidli, qo'ziquloqli-efemeroidzor va shuvoqli efemeroidzor jamoalari mavjud bo'lib, ular intensiv mol boqilishi natijasida degradatsiyaga uchragan. Bundan tashqari, keyingi paytlarda Hisor tog' tizmasi tog'oldi hududlarida neft va gaz zahiralarning faol darajada rivojlanayotganligi ham sabab bo'lmoqda [9]. Chorva mollarininng ko'p bo'lishi yaylovlardagi o'simlik miqdorini kamayishiga olib keladi. Bunday holat Chiroqchi va Muborak tumanlarida kuchli yuz bermoqda.

## NATIJALAR

Yaylovlar hududini tashkil etish masalalari har xil mintaqalarning, tumanlarning, yaylov turlarining aniq tabiiy va iqtisodiy sharoitlarini, ularning relyef bo'yicha joylashishini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan tarzda yechiladi.

Yaylovlar maydoni yetishmaydigan xo'jaliklarda (haydalma yerlar nisbati yuqori tumanlarda) birinchi navbatda ularni fermalarga, mollar turlariga biriktirishning maqsadga muvofiqligi masalasi yechiladi, sababi, mollar mahsuldorligining o'sishi ayrim mol turlari uchun ajratilgan yaylovlar sifatiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Sug'oriladigan madaniy yaylovlar hududini tuzishning xususiyati shundan iboratki, uning barcha elementlarining joylashishi yomg'irli sug'orish texnikasining texnik-iqtisodiy tavsifini va sug'orish tarmog'ining joylashishini hisobga olishga bo'ysundiriladi. Bunda quyidagi masalalar yechilgan bo'lishi kerak:

- ❖ yaylovlarni chorvachilik fermalariga biriktirish;
- ❖ yaylov almashishlarni ishlab chiqish;
- ❖ sug'orish tarmog'ini va yomg'irli sug'orish mashinalarini (qurilmalarni) joylashtirish tartibini tanlash;
- ❖ poda uchastkalarini, mollar navbat bilan qamab boqiladigan maydonlarni, yozgi lagerlarni, suv manbaalarini, mollar haydaladigan yo'llarni joylashtirish;
- ❖ sug'orish tarmog'ini joylashtirish. Sug'oriladigan madaniy yaylovlar odatda mahsuldorligi yuqori mollarga, eng avvalo sut fermalariga biriktiriladi. Yaylov almashishlar o'rmon-cho'l sharoitida 6-10 va cho'l sharoitida 4-8 yillik rotatsiyali qilib loyihalanadi.

## XULOSA

Sug'orish tarmog'ini joylashtirish tartibini tanlashga yaylov uchastkasining maydoni, shakli, relyefi, navbat bilan qamab boqiladigan maydonlar soni va o'lchamlari, yomg'irli sug'orish mashinasining (qurilmasining) turi ta'sir etadi. Almaliyotda yaylovlarni sug'orishda suvlarni mexanik ko'tarishga asoslangan yomg'irli sug'orish tizimi ko'p tarqalgan. U ko'pincha quvur o'tkazgichlar shaklida loyihalanadi va gidrantlari yer yuzasiga chiqarilib yerga yotqizilgan doimiy, sug'orish oldidan yaylov yuzasiga yotqiziladigan ko'chma, magistral quvurlari yerga ko'milgan, ularga sug'orish quvurlari ulanadigan aralash (yarim doimiy) bo'lishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Yaylovlar to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 20-may.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi PF-6024-son “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 18-avgustdagi “Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining normativ qiymatini aniqlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 235-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma‘muriy hududlar birliklar chegarasini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish” to‘g‘risidagi 299-son qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-yanvardagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda monitoring ishlarini amalga oshirish, yerlarni muhofaza qilish va yer tuzish faoliyatini tartibga soluvchi normativhuquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 22-son qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining Milliy hisoboti. - Toshkent: 2021. 87-b.
7. Turayev R.A. Yer monitoringi / O‘quv qo‘llanma. - Toshkent, 2022. - 162 b.
8. Turaev R.A., Davronov O.O‘., Sharopov R.N. Lalmi va yaylov yerlarida monitoringni yuritish. Ilmiy-uslubiy qo‘llanma. -Toshkent: “Fan ziyosi” nashriyoti, 2021. - 62 b.
9. O.O‘. Davronov. Tabiiy yaylovlar o‘simliklarining monitoringini yuritish va uning ahamiyati. O‘zbekiston zamini. 3/2023. 20-23 bet.
10. Egamova D.A., Hojiqulova M.O., Toshpo‘latova R.U. SUG‘ORILADIGAN MADANIY YAYLOVLAR HUDUDLARINI TASHKIL ETISHNING XUSUSIYATLARI. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION. 2023.



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14577069>

## ELEKTR TARMOQLARIDAGI YUQORI GARMONIKALAR TA'SIRINI KAMAYTIRUVCHI FILTRLAR TURLARI VA SIMULYATSION MODELI

**H.Sh.Ne'matjonov,**

**A.X.Eraliyev**

Farg'ona politexnika instituti

E-mail: [h.nematjonov@ferpi.uz](mailto:h.nematjonov@ferpi.uz)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada elektr tarmoqlarida yuqori garmonikalarni kamaytirish uchun foydalaniladigan aktiv filtrlar turlari va ularning samaradorligi tahlil qilingan. Yuqori garmonikalar nosinusoidal signal komponentlari bo'lib, ular tarmoqlarda energiya yo'qotishlari, qurilmalarning samaradorligining pasayishi va elektr tizimlarida rezonans hodisalarini keltirib chiqaradi. Ushbu maqolada, aktiv filtrlarning qanday ishlash prinsiplari mavjudligi, ularning tarmoq samaradorligini oshirishdagi roli va filtrlarning turlariga oid tahlillar keltirilgan. Passiv filtrlar bilan solishtirganda, aktiv filtrlar yuqori samaradorlik va moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Aktiv filtrlarning asosiy turlari seriya va parallel aktiv filtrlar bo'lib, ular garmonikalarni real vaqt rejimida kompensatsiya qilish orqali tizim sifatini yaxshilaydi. Maqolada, shuningdek, gibrid filtrlar, MATLAB/Simulink yordamida amalga oshirilgan simulyatsiyalar va yuqori quvvatli harmonik filtrlarning modellashtirilgan tahlili ham ko'rib chiqilgan. Tarmoq samaradorligini oshirish uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Yuqori garmonikalar, aktiv filtrlar, passiv filtrlar, gibrid filtrlar, tarmoq samaradorligi, simulyatsiya, MATLAB/Simulink.

**Аннотация:** В данной статье проанализированы типы активных фильтров, используемых для уменьшения высших гармоник в электрических сетях, и их эффективность. Высшие гармоники представляют собой несинусоидальные компоненты сигналов, которые вызывают потери энергии, снижение эффективности оборудования и явления резонанса в электрических системах. В статье рассмотрены принципы работы активных фильтров, их роль в повышении эффективности сети и анализ типов фильтров. В сравнении с пассивными фильтрами активные фильтры обеспечивают высокую эффективность и гибкость. Основными типами активных фильтров являются

*последовательные и параллельные активные фильтры, которые улучшают качество системы за счет компенсации гармоник в режиме реального времени. Также в статье изучены гибридные фильтры, симуляции, выполненные с помощью MATLAB/Simulink, и моделирование высокоэффективных гармонических фильтров. Даны научно обоснованные рекомендации по повышению эффективности сети.*

**Ключевые слова:** *Высшие гармоники, активные фильтры, пассивные фильтры, гибридные фильтры, эффективность сети, симуляция, MATLAB/Simulink.*

**Abstract:** *This article analyzes the types of active filters used to reduce higher harmonics in electrical networks and their effectiveness. Higher harmonics are non-sinusoidal signal components that cause energy losses, reduced equipment efficiency, and resonance phenomena in electrical systems. The paper discusses the operating principles of active filters, their role in improving network efficiency, and an analysis of filter types. Compared to passive filters, active filters provide higher efficiency and flexibility. The main types of active filters are series and parallel active filters, which enhance system quality by compensating harmonics in real-time. The article also examines hybrid filters, simulations conducted using MATLAB/Simulink, and the modeled analysis of high-power harmonic filters. Scientifically based recommendations for improving network efficiency are provided.*

**Keywords:** *Higher harmonics, active filters, passive filters, hybrid filters, network efficiency, simulation, MATLAB/Simulink.*

Elektr energiyasidan keng miqyosda foydalanish bilan birga, zamonaviy elektr tizimlarida yuqori garmonikalar muammosi ham dolzarb masalaga aylangan. Yuqori garmonikalar elektr energiya tizimlarida kuchlanish va tok sinusoidasining buzilishiga olib keluvchi nosinusoidal komponentlardir. Ushbu garmonikalar, asosan, nolinear yuklar, invertorlar, to'g'rilagichlar, shuningdek, zamonaviy energiya tejoychi qurilmalar va elektron qurilmalar natijasida hosil bo'ladi [1]. Bu holat elektr energiya tizimining samaradorligini pasaytirib, turli nojo'ya oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Elektr tarmoqlarda yuqori garmonikalar turli salbiy ta'sirlarni keltirib chiqaradi. Avvalo, tarmoqqa haddan tashqari yuklanish hosil bo'ladi, bu esa energiya yo'qotishlarini oshiradi. Bundan tashqari, kuchlanishning nosinusoidal bo'lishi iste'molchilar uchun zararli holatlarni keltirib chiqaradi [2]. Masalan, dvigatellar va transformatorlar singari elektr qurilmalarining qizib ketishi va umuman samaradorlikning pasayishi kuzatiladi. Elektron qurilmalar esa yuqori garmonikalar ta'sirida to'g'ri ishlamasligi yoki umuman ishdan chiqishi mumkin.

Buning oqibatida elektr tarmoqlari va iste'molchilarning ishlash barqarorligi pasayadi. Yuqori garmonikalar, shuningdek, tizimdagi rezonans hodisalarini keltirib chiqarishi mumkin bo'lib, bu esa uskunalarning jiddiy zarar ko'rishiga olib keladi. Tarmoqning umumiy sifatini pasaytirish bilan birga, yuqori garmonikalar iqtisodiy zararlarni ham yuzaga keltiradi. Masalan, ortiqcha energiya yo'qotishlari sababli ekspluatatsion xarajatlar oshadi, qurilmalarni tez-tez almashtirish yoki ta'mirlash zarurati tug'iladi [1].

Shu sababli, yuqori garmonikalarni aniqlash, ularga qarshi kurashish va elektr tarmoqlaridagi ta'sirini kamaytirish zamonaviy energetika tizimlarida muhim vazifa hisoblanadi. Aktiv filtrlar yuqori garmonikalarni samarali bartaraf etish vositasi sifatida ko'rilmoqda. Ushbu texnologiya orqali elektr energiya tizimlarining barqarorligi va samaradorligini oshirishga erishish mumkin.

